

## O'qituvchi nimani o'yaydi?

Endi o'quvchilarimiz oliy o'quv yurtiga kirish uchun 3 ta emas, naq 5 ta fandan imtihon topshiradi. Bundan nima ko'zlangan, ochig'i, tushuna olmadim. Bitta fandan o'z yo'nalishida zo'r imtihon topshirsin, yetuk mutaxassis bo'sisin. Imlo savodxonligi majburiy joriy qilinsin. Ana shunda maqsadimizga erishamiz, deb o'yayman.

4-bet

## No'noq mutaxassis osmondan tushmaydi

Birinchidan, ta'lif tizimini boshqarishdagi muammolar. Bog'cha, maktab, litsey, kollej, tuman va viloyat xalq ta'limi bo'limlariga rahbar tayinlashda hali ham avvalgi, eskicha uslubda kadrlar tanlanyapti.

10-bet

## Janubiy Koreya taraqqiyotidagi ikkinchi "mo'jiza"

Sinf rahbarlari (koreyscha "tamim sonnenim") o'quvchilar hayotida muhim rol o'ynaydi va boshqa yurtlardagi hamkasblariga qaraganda katta obro'ga ega.

12-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

# Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 18-sentabr, chorshanba № 72 (9241)

Xalq ziyolilari gazetasи

Media-tur

## Prezident maktablari — ta'lif sifatini oshiruvchi lokomotiv



Yangi o'quv yilida  
Toshkent shahridagi  
Prezident maktabi  
ish boshladi.

Namangan, Nukus va Xivada Prezident maktablarini qurilish va jihozlash ishlari yakunlanmoqda. Mazkur maktablarni Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand va Farg'on'a viloyatlarida 2020-yilda, Andijon, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarda 2021-yilda turish rejalashtirilgan.

Toshkent shahridagi Prezident maktabida o'tkazilgan media-turda journalistlar ta'lif muassasasi hayoti, shart-sharoitlari va o'quv jarayoni bilan tanishdi. Suhbat chog'ida aytib

o'tilganidek, joriy yilda kirish imtihonlari uchun dastlab 28 452 nafar nomzod o'quvchi ro'yxatga olingan. Shundan 27 471 nafari saralash imtihonida ishtirok etdi. Natijalarga ko'ra, har bir maktabga 144 o'quvchi qabul qilindi. Prezident maktablari internat sifatida faoliyat ko'rsatishga mo'ljallangan. Ya'ni o'quvchilar 5 kun davomida muassasa hududida (korpusda) yashab, o'qishadi. Dam olish kunlari ota-onalar farzandlari uylariga olib ketishlari mumkin.

16-bet

Dolzarb mavzu

## Insho yozdirishni bilasizmi?

Umumta'lim muassasalarida olib borilayotgan nazorat ishlarining holatini o'rganish maqsadida maktabga borib, o'quvchilarni savolga tutdim. Ularning aksariyati nazorat ishlarini (insho va matn yaratish) internetdan ko'chirib olayotganini aytishdi. Sababini so'rasam, insho yozishni bilmasligi yoki qiziqmasligini bahona qilishdi. Xo'sh, hurmatli o'qituvchi, siz bunday holatga qanday izoh bergen bolar edingiz?!

Inson hayotida ta'lif butun umr davom etuvchi va faqat o'rganish bilan chegaralanmaydigan jarayon hisoblanadi. Inson farzandi dunyoga kelib, sezgi a'zolari yordamida hayotni bilish, o'rganishni boshlaydi. Ulg'aygani sari uning bilim va tajribasi oshib, tasavvur doirasi kengayib boradi. U tafakkur vositasida ayon va noayon haqiqatlarni ham idrok etishni o'rganib oladi. O'qituvchilardan o'z o'quvchilarining nafaqat borliq to'g'risidagi bilimlarini, balki tafakkur vositasida anglagan tushunchalarini ham ro'yobga chiqarish, ifodalab berishga o'rgatish talab qilinadi. Bu o'rinda tafakkurga nafaqat zohiri, balki botiniy (ichki) olamning ham inson miyasida umumlashgan, til bilan ifodalanadigan in'ikosi sifatida qarash joiz.



# SANOATDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINI OSHIRISH VA KOOPERATSIYANI KESKIN KENGAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmigida 17-sentabr kuni sanoatni jadal rivojlantirish, mahalliylashtirish darajasini oshirish va ko'lamenti kengaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Mamlakatimizda faol investitsiya siyosati yuritilayotgani, tashqi savdo va valyuta operatsiyalari erkinlashtirilgani natijasida sog'lom raqobat muhitni, haqiqiy bozor iqtisodiyoti shakllanmoqda.

Yig'ilishda O'zbekiston sanoatni zamon talablarasi asosida rivojlantirish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va turini kengaytirish masalalarini muhokama qilindi.

Eksportport va import o'mini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga yo'naltirilgan sanoat siyosatini yuritishimiz zarur. Mavjud xomashyo va imkoniyatlardan samarali foydalangan holda mahalliylashtirish darajasini chuqlashtirish va ko'lamenti keskin kengaytirish ushbu sanoat siyosatining negizi bo'lishi kerak, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentning joriy yil 24-avgustda qarorida ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish belgilangan edi. Yig'ilishda ushbu tizimning samarali ishlashtirishini yo'iga qo'yish bo'yicha topshirilgan berildi. Mahalliylashtirishni kengaytirishga qaratilgan eng muhim yo'nalishlar ko'rsatilgan berildi.

Tarmoqlar va yirik korxonalarda ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hamda sanoat kooperatsiyasini kengaytirish masalasi muhokama qilinash ekan, joriy yilning o'tgan davrida yangi loyihalar

dorasida bor-yo'g'i 1 milliard dollarlik mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarilgani qoniqarsiz deb baholandi. Bu boradagi ishlar sust tashkil etilgan "O'zmaxsusmontajqurilish" aksiyadorlik kompaniyasi, "O'zyog'moysanoat" uyushmasi, "O'zbekiston milliy elektron tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatni kabi korxonalar faoliyatini tanqid qilindilari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 1-maydag'i "Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallarning yangi turlarini o'zlashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar tahlil qilindi.

Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish bo'yicha amaliy choralar ko'rish, elektron kooperatsiya portalini tezroq ishga tushirib, sanoat mahsulotlari yetkazib berish shartnomalarini elektron tarmoqlariga ulash kabi masalalar to'sid bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Hududlarda ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni keskin kengaytirish va chuqlashtirish masalalari atroficha muhokama qilindi.

Joriy yilda hududiy import o'sishi tarmqardagiga nisbatan 2 barobar yuqori bo'lishi kuzatilmoqda. Bu hududlarda ishlab chiqarishni keskin ko'paytirish uchun katta ehtiyoj borligini yaqqol ko'rsatadi. Masalan, yaqinda soha vakillidan iborat ishchi guruhlar to'rtta shaharga borib, Angrenda 38 ta, Navoiyda 13 ta, Namanganda 29 ta va Chirchiqa 18 ta yangi mahalliylashtirish loyihalarini shakllantirdi.

Shu tartibda har bir hudud bo'yicha

mahalliylashtirish dasturlarini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Yer maydonlari, tayyor binolar va infratuzilmaga ega bo'lgan kichik sanoat zonalari bu borada katta imkoniyat yaratadi. Lekin yurtimizdagi 156 ta ana shunday zonadagi loyihalarning atigi 13 foizi mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan. 80 ta shahar va tumanda shunday zonalar tashkil etish huddud tashkil qilinmagan.

Mutasaddilarga barcha kichik sanoat zonalarida import o'mini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish loyihalarini ko'paytirish, o'sha 80 ta shahar va tumanda shunday zonalar tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Import qilinayotgan texnologik ususkunalardan samarali foydalanimiz zarurligi ta'kidlandi. Chunki joylarda chetdan valyutaga olib kelganan texnologiyalar ishlatalmay turgan ko'plab holatlar aniqlangan. Bunga yer ajratish, qurilishga ruxsat berish, kommunikatsiya tarmoqlariga ulash kabi masalalar to'sid bo'lgan.

Davlatimiz rahbari uskunalar xarid qilgan tadbirdorlar muammolarini tezda hal etish, rejalashtirilgan korxonalarining ishlab ketishiga ko'maklashish bo'yicha qat'iy topshiriqlar berdi. Biznes-ombudsmana import qilingan texnologik jihozlarni ishga tushirishgacha bo'lgan barcha jarayonni tuman, shahar, viloyat va respublika darajasida muvofiqlashtirish tavisya etildi.

Ishlab chiqarishni mahalliylashtirishda yetakchi bo'lgan yirik loyihalarni o'z muddatida amalga oshirish masalasiaga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, "Navoiyazot" negizida 100 ming tonna polivinilxlorid, Toshkent metallurgiya zavodida 500 ming tonna metall prokaka

ti, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasida 744 ming tonna dizel yoqilg'isi, Toshkent mexanika zavodida maishiy texnika ishlab chiqarish klasteri, "Kvars", "Sirdaryo Glass" va "Zarafshon oyna" korxonalarida oyna ishlab chiqarish loyihalari yiliغا 2,5 milliard dollar miqdorida mahalliylashtirgan mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Bundan tashqari, ularning atrofida boshqa kichik ishlab chiqarishlar ham rivojlanadi va yangi ish o'rnlari yaratiladi.

Bosh vazir va Hisob palatasi rahbariga ushbu yirik loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirishni ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Mahalliylashtirishni qo'llab-quvvatlash masalasi ko'rib chiqilar ekan, bunday loyihalarni amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan kafillik berish va kredit foiz stavkasini qisman qoplash tizimidan samarali foydalanimiz zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek, bojxona to'lovlarini 120 kungacha uzyatirib to'lash, ishlab chiqarishni mahalliylashtirgan korxonalarining tayyor mahsulotlarni sertifikatlash va standartlashtirish masalalarida ko'maklashish imkoniyati mayjudligi qayd etildi.

Davlat xaridlarida mahalliy korxonalar ishtirokini kengaytirish va rag'batlantirish, tashqi savdoni tarif usuli bilan boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ham ustuvor vazifalar belgilandi.

Videoselektor yig'ilishida muhokama qilingan masalalar yuzasidan tarmoqlar va hududlar rahbarlarining hisoboti eshitildi.

O'ZA

## TA'LIM SOHASIDA HAMKORLIKNING YANGI QIRRALARI

Yevropa Ittifoqining Erasmus+ ta'limga, kasbiy tayyorgarlik, sport va yoshlar bilan ishlash, loyihalar dasturi chorak asrdan buyon O'zbekiston olyi ta'limga tizimida samarali amalga oshirib kelinadi.

Toshkentdagi Xalqaro biznes mazkazida Tempus va Erasmus+ dasturlari doirasida O'zbekiston hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'tasida olyi ta'limga sohasidagi hamkorlikning 25 yilligiga bag'ishlab matbuot anjumanini o'tkazildi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Olyi va o'rta maxsus ta'limga vazirligi mutasaddilari, xalqaro tashkilotlar vakillari, Erasmus+ loyihalari jamoalari, jurnalistlar ishtirok etdi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan eng samarali hamkorlik 1994—2013-yillarda Tempus dasturi, 2007—2014-yillarda Erasmus Mundus dasturi asosida amalga oshirildi. 2014-yildan buyon

esa Erasmus+ dasturi amalda. Mazkur dastur mamlakatimizda olyi ta'limga rivojlantirish va modernizatsiya qilishga ko'maklashishni ko'zlaydi. Ayni paytda yurtimizning 70 ga yaqin olyi ta'limga muassasasi Erasmus+ loyihalari bo'yicha katta tajribaga ega.

Mazkur sohaga doir barcha dasturlar O'zbekiston hukumatining olyi ta'limga rivojlantirish bo'yicha maqsad-muddaollariga hamohang ekan bilan ahamiyatlidir, — dedi Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi delegatsiyasi vakili Yussi Narvi. — Ishonamanki, O'zbekiston ham Yevropa Ittifoqi o'tasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, o'qituvchilar va talabalar o'tasidagi akademik almashinuvni ta'minlashga birdekk hissa qo'shadи. Ushbu dastur o'zbekistonlik yoshlarga Yevropa mamlakatlarining yetakchi universitetlarda tahsil olish imkonini

beradi. Shuni ham aytishni istardimki, bugun O'zbekistonda ta'limga qaratilayotgan e'tibor bizni quvontirdi.

— O'tgan 25 yil mobaynida biror loyihalar ijrosi yuzaki qilingani yo'q, — dedi Erasmus+ milliy ofisining O'zbekistondagi koordinatori Aziza Abdurahmonova. — Iqtidorli yoshlarning Yevropadagi yetakchi universitetlarda tahsil olishi, grantlar, stipendiyalar bo'yicha maxsus dasturlar, talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuv, pedagoglarning kasbiy salohiyatini yana da yuksaltirishga doir bu loyihalar hozirishda ham izhil va muvaffaqiyatlidavom etirilmoqda.

Darhaqiqat, o'qituvchilarni qayta tayyorlash, menejment va biznes sohasida o'quv dasturlarini yaratish, zamonaliv o'quv laboratoriyalarini tashkil etish, yurtimiz olyi ta'limga dargohlari hamda Yevropaning yetakchi universitetlari

o'rtaqasidagi hamkorlikni o'rnatishda Tempus va Erasmus+ dasturlarining ahamiyati katta bo'ldi. Bu boradagi loyihalar dasturlarining muvaffaqiyatlidir amalga oshirilishida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Guliston davlat universiteti, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Urganch davlat universiteti, Muhammad al-Xorazm nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Turin politeknika universiteti, Qoraqalpoq davlat universiteti kabi olyi ta'limga muassasalarini yetakchi o'rni egallamoqda. Istiqbolda esa bu boradagi hamkorlikni tobora kengaytirish belgilangan.

Matbuot anjumanida joriy yilning oktabr oyida bo'lib o'tadigan "Erasmus kunlari — 2019" haftaligi haqida ham ma'lumot berildi.

Nazokat USMONOVА,  
O'ZA muxbir

# Yangi o'quv yili yangiliklari

## Xalq ta'limi



Yangi o'quv yilda yurtimizdagи maktablar soni 9 904 taga yetdi, bu ta'lim muassasalarini o'tgan yilga nisbatan 231 taga ko'payganini ko'rsatadi. Joriy yilda 937 ta maktabda Investitsiya dasturi va boshqa davlat dasturlari doirasida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Buning uchun 2,86 trillion so'm sarflandi.

\*\*\*

Mamlakatimizda faoliyati tutgatilan 383 ta kasb-hunar kolleji binosining maktablarga berilishi natijasida qo'shimcha 224 mingdan ortiq o'quvchi o'rni yaratildi.

\*\*\*

Umumta'lim muassasalarining 10-11-sinf o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishiga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualari tugatildi. Ushbu majmualarning tugatilishi hisobiga bo'shaydigan mablag'lar professional ta'lim tizimini moliyalashtirishga yo'naltirildi.

\*\*\*

Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan umumta'lim maktablari o'quvchilar o'rtaida "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik-tanlovini o'tkazish tartibi belgilandi. Nizomga ko'ra, mazkur tanlov XTV tizimidagi maktablarning 8-10-sinf o'quvchilaridan iborat terma jamoalar o'rtaida to'rt bosqichda o'tkaziladi.

\*\*\*

Xalq ta'limi vazirligi jamoasi tizimga axborot-kommunikatsiya hamda mobil texnologiyalar sohasidagi imkoniyatlarni ataqib etishga kirishib, 2019-2020-o'quv yili uchun nashr etilgan 8-sinf "Texnologiya", 8-sinf "O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi", 9-sinf "Konstitutsiyaviy

huquq asoslari" darsliklariga illor QR-kodi kiritildi. Ushbu kod 60 ta mavzuga alohida-alohida o'rnatilgan bo'lib, qo'shimcha manbalardan foydalanan imkoniyatini beradi. QR-kod — tezkor javob, ya'ni skannerlovchi uskuna (fotoapparat, telefon) yordamida oson va tez o'qish imkonini beradi.

\*\*\*

Toshkent, Xiva, Nukus va Namangan shahridagi Prezident maktablarining 5-10-sinflariga o'quvchilar o'qishga qabul qilindi. Maktablar faoliyati samaradorligini aniqlashda reyting baholash tizimini joriy qilish maqsadida o'quv jayroni xorijiy ta'lim muassasalarini bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlar bo'yicha amalga oshiriladi hamda "STEAM — ta'lim" (Science — tabiiy fanlar, Technology — texnologiya, Engineering — texnik ijodkorlik, Art — san'at, Mathematics — matematika) dasturi asosida olib boriladi.

\*\*\*

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan kitobxonlikni targ'ib qilish orqali o'quvchi ma'naviy-ma'rifiy dunyosini boyitish maqsadida "Yilning eng iste'dodli shoiri" ko'rik-tanlovi tashkil etildi. To'rt bosqichda bo'lib o'tgan mazkur tanlovda 3,2 mingdan ortiq 5-10-sinf o'quvchilar ishtirok etdi. 28 nafar g'olib o'g'il-qizlariga diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.



## Oliy ta'lim

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qabul kvotasi 2017-yilga nisbatan deyarli ikki hissa ko'paydi. Bu yilgi qabul kvotasini shakllantirishda muhandislik, texnik va tabiiy fanlar yo'nalishlarda ko'proq kadrlar tayyorlashga asosiy e'tibor qaratildi. Mehnat bozori ehtiyojlar, ish beruvchilarining talab va istaklaridan kelib chiqib, bu yildan 40 bakalavriat ta'lim yo'nalishi, 41 magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

\*\*\*

Abituriyentlar uchun bir vaqtning o'zida ucta oliy ta'lim muassasasiga hujjat topshirish tartibi joriy etildi. Natijada ko'plab yoshlar birinchi yo'nalish bo'yicha test sinovlaridan o'tolmasa ham, ikkinchi yoki uchinchi OTMDa olyi ta'lim olish imkoniyatini qo'lga kiritdi.

\*\*\*

Sirtqi, kechki ta'lim shakllari bo'yicha kvotalar oshirildi. Tegishli ish beruvchilarining tavsiyasi asosida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan xodimlarni keyinchalik ushbu tizimda besh yil ishlab berish sharti bilan ish faoliyatiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari suhbat asosida ta'llimning sirtqi va kechki shakllariga qabul qilish tartibi joriy etildi. Bu toifadagi talabalarga to'lov-shartnomalar pulining korxonalar to'lab berilishi yo'lga qo'yildi.

\*\*\*

Shu yilning o'zida yurtimizda 8 ta xorijiy va 7 makhalliy olyi ta'lim muassasasining filiallari tashkil etildi. Bundan tashqari, 22 ta xorijiy yetakchi OTM bilan hamkorlikda 55 ta qo'shma ta'lim dasturi yo'lga qo'yildi. Hozir ushbu dastur bo'yicha ochilgan fakultetlari 7000 naftar talaba qabul qilindi.

\*\*\*

Harbiy imtiyozga ega abituriyentlar uchun umumiyl kvotadan tashqari alohida kvota ajratildi. Shuningdek, mehribonlik uylari, bolalar shaharchasida tarbiyalangan abituriyentlar uchun umumiyl kvotaning bir foizi miqdorida alohida o'rinn ajratildi.

\*\*\*

Magistraturada mutaxassislik bo'yicha o'qishga kirishdagi imtihonlar beshtadan ikkitaga qisqartirildi. Imtiyozli talabalar uchun umumiyl kvotadan tashqari alohida o'rinn ajratildi. Magistraturaga faqat turdosh yo'nalishlarni bitirgan bakalavrular hujjat topshira olishiga oid taqiq bekor qilindi. Cheklov faqat tibbiyot, san'at va madaniyat mutaxassisliklari saqlab qolindi. Magistraturaga qo'shimcha qabul qilish imkoniyati OTM, vazirlilik va idoralarga beriladi. Tabiiy fanlar, texnika va muhandislik mutaxassisliklari bo'yicha o'qish istagidagi talabalar faqat davlat granti asosida o'qishga qabul qilindi. Natijada magistraturada o'qish istagida bo'lgan yoshlar soni ortdi. Ular qabuli ham 24 foizdan 55 foizga yetdi.



## Maktabgacha ta'lim

Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida autsorsing usulida sog'lom ovqatlantirish Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan o'tkaziladigan tanlov natijalariga ko'ra tashkil qilinishi belgilandi. Ushbu mezonga ko'ra, MTMlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari va Toshkent shahar maktabgacha ta'lim boshqarmasining so'rovi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining amaldagi o'rtaча bozor narxlarini to'g'risidagi ma'lumotlarning mutazam ravishda o'z veb-saytlarida joylashtirilishi va taqdim etilishini ta'minlaydi.

\*\*\*

Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlandi. Mazkur me'yoriy hujjatga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonloma intellektual rivojlanishi, sifatli va sog'lom tarbiyalanishi bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilandi. Jumladan, bolalarning jismoniy baquvvat bo'lishi, atrof-olam bo'yicha tafakkuri kengayishi, chet tilini o'rganishi kabi ko'plab ijobji o'zgarishlar ko'zda tutilgan.

## Maktabdan tashqari ta'lim

Shu yilning oktabr oyida fotohavaskorlik yo'nalishida "Mustaqil yurtim jamoli" mavzusida o'tkaziladigan sirtqi tanlovning respublika bosqichi bo'lib o'tshi rejulashtirilgan. Noyabrda esa raketa-model yo'nalishi bo'yicha ko'rgazmali nuxsalar sirtqi tanlovi bo'lib o'tadi.

\*\*\*

Umumta'lim muassasalarida "Yosh kitobxon" klubini tashkil etish rejulashtirildi hamda uning dasrasi ishlab chiqildi. Klubga 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadi. "Yosh kitobxon" klubi o'quv rejasini ikki o'quv yiliga mo'ljallangan. Ushbu o'quv dasturida berilgan mavzular va mavzuga oid soatlar miqdori (144 soatdan chiqmagan holda) hududning va to'garaklarga jalb qilingan bolalarning yosh xususiyatlardan kelib chiqqan holda to'garak rahbari tomonidan 25 foizgacha o'zgartirilishi mumkin.



## Ustoz boshlagan yo'

Poytaxtimizdagi 34-umumta'lum mabkabida 5—11-sinflar o'rtasida ilk marotaba To'xtamurod Jumayev nomidagi matematika olimpiadasi o'tkazildi. Unda mamlakatimizning turli viloyatlardan 1000 nafardan ortiq o'quvchi ishtirok etdi. Mazkur olimpiada Xalq ta'lumi vazirligi va "Qorako'l Ziyo" o'quv markazi hamkorligida tashkil etildi.



Olimpiada mamlakatimiz umumta'lum mabkabining 5-6-7-sinflari, 8-9-sinflari, 10-11-sinflari hamda akademik litseylarining 1-2-bosqich va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich o'quvchilar o'rtasida 3 ta yo'naliш bo'yicha o'tkazildi. Sinov jarayonida ishtirokchilarga 3 soat ichida 6 ta masalani yechish vazifasi topshirildi.

Olimpiada topshirilgari (yozma ishlari) Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga mos ravishda Xalq ta'lumi vazirligining Fan olimpiadalarini bo'yicha iqtidorli o'quvchilar bilan ishshash deparmenti va "Qorako'l Ziyo" o'quv markazi hamkorligida tuzildi.

Ishtirokchilar tomonidan berilgan javoblar xalqaro va respublika

olimpiadalarini g'oliblaridan iborat tarjibali hakamlar tomonidan ko'rib chiqildi.

Shu o'rinda To'xtamurod Jumayev shaxsi bilan bog'liq savollar tug'ilishi tabiiy. Nega ayanan yurtimizdagi matema-

### G'oliblar ro'yxati

Sinf	1-o'rin	2-o'rin	3-o'rin
5-6-7-sinflar o'rtasida	Yusufjon Ortikov	O'Imas Xudoyerberdiyev	Nurmuhammad Otamurodov
8-9-sinflar o'rtasida	Anvarbek Rahmatov	Iskandar Bo'riyev	Muhammadrizo Majidov
10-11-sinflar o'rtasida	Doniyor Ismoilov	Ibrohim Mirg'iyosov	Eldor Neymatov

Fotima JUMAYEVA

## Informatika o'qituvchilari bellashdi

Qarshi shahridagi 21-umumiy o'rtalim mabkabida Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'rik-tanlovinining respublika bosqichi tashkil etildi.



Dastlab ishtirokchilar Qarshi shahrining diqqatga sazovor joylarini tomosha qildilar. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov hay'ati a'zolari tomonidan kuzatilib, tahsil qilindi. Ikkinci kuni ishtirokchilar onlayn test topshirib, o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishdi.

Tanloving birinchi kuni ishtirokchilarining darslari hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan kuzatilib, tahsil qilindi. Ikkinci kuni ishtirokchilar onlayn test topshirib, o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishdi.

Shu kuni ko'rik-tanlov ishtirokchilar Shahrisabz shahriga sayohat qilib, qadim shaharning tarixiy obidalari, diqqatga sazovor joylari bilan tanishdilar. Oqsaroy maydoniyada joylashgan "KOBA" majmuasida tanlov ishtirokchilarini taqdirlash marosimi o'tkazildi. Barcha ishtirokchilarga viloyat xalq ta'lumi boshqarmasining tashakkurnomasi va esdalik sovg'alari topshirildi.

Sevin OCHILOV,  
viloyat XTB axborot xizmati boshlig'i



## "O'zgarishlarni o'zimizdan boshlaylik"

O'quv yili boshidan oq har bir ta'lum muassasasida ta'lum jarayoni turli o'zgarishlar, yangi tashabbuslar bilan boyitilmoqda. Yunusobod tumanidagi 53-umumta'lum mabkabi jamoasi ham ana shunday yangiliklar bilan ish boshladи. Mabkabda bo'lib o'tgan "O'zgarishlarni o'zimizdan boshlaylik" mavzusidagi o'quv-seminarda metodistlar va fan o'qituvchilar ishtirok etdi.

Seminar davomida bu yil ishga qabul qilingan yosh mutaxassislar o'rtasida so'rovnomasi o'tkazildi, — deydi rus tili va adabiyoti fani metodisti Surayyo Muslimova. — So'rovnomada yosh o'qituvchilar uchun qanday muhim mavzularda trening-mashg'ulot o'tilishi kerakligi aniqlanib, o'quv yili davomida ilg'or malakaga ega fan o'qituvchilarining tajribasini ommalashirish maqsad qilindi. Yosh pedagoglarning malaka va mahoratini oshirish uchun tajriba almashildi.

Tadbir doirasida tumandagi 63-, 70-, 220- va 250-mabkab o'qituvchilar maqsadli ko'rsatkichlarga asoslangan trening darslarini o'tdi.

Sh.BOYMURODOVA  
B.RIZOQULOV o'lgan surat.



Yaqinda ijtimoy tarmoqlar da o'qituvchi o'ziga hurmatsizlik qilgani uchun o'quvchisiga qo'l ko'targani haqida xabar targoldi. Bunga hamma o'zicha fikr bildirdi. Aslida, o'qituvchi har qanday vaziyatda ham o'zini tuta bilishi, qonuniga chorha ko'rishi lozim edi. Pedagog haq bo'lgan taqdirda ham, aybsizligi isbotlanmaydi. Kim bo'lishidan qat'i nazar, urish, so'kish bilan ish bitmaydi.

Dilnoza AHMEDOVA

Maktabimizda o'qituvchilar eski toifa bo'yicha tarifikatsiya qilindi. Attestatsiya testlari o'tkazilganiga 2 oydan oshdi, ammo hali-hanuz navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tgan o'qituvchilarning yangi toifa sertifikati kelgani yo'q. Nahotki, 1 dona qog'ozning kelishi shunchalik qiyin bo'sha!

Sevara OTABOYEVA

Yozishni faqat arz qilish uchun o'rganganlar ko'panib ketdi. Bugun mabkabda navbatchi edim. 2-sinf o'quvchining onasi vajohat bilan kirib keldi. Nima emish, o'g'liga rus tili o'qituvchisi "4" baho qo'yibdi. Amallab jo'natdik. O'sha kuni XTB mudiri bir onadan arz bor, deb direktorni chaqirdi. Mana, qanaqa onalar bor bizda.

Farida AXBORALIYEVA

Endi o'quvchilarimiz oliy o'quv yurtiga kirish uchun 3 ta emas, naq 5 ta fandan imtihon topshiradi. Bundan nima ko'zlangan, ochig'i, tushuna olmadim. Bitta fandan o'z yo'naliشida zo'r imtihon topshirsin, yetuk mutaxassis bo'lsin. Imlo savodxonligi majburiy joriy qilinsin. Ana shunda maqsadimiza erishamiz, deb o'ylayman.

Dilfuza SUVONOVA

Boshlang'ich sinf o'qituvchimiz avgust oxiridan nafaqaga chiqdiyu, to'g'ri dam olishga — sanatoriya ketdi. 36 yil ishладим, endi dam olaman, dedi. O'tgan yili ham bir o'qituvchimiz pensiyaga chiqqandi. Ertaroq nafaqaga chiqsam bo'lar ekan, asabdan qo'llarim qaltiraydigan bo'lib qoldi, dedi. Nafaqaga chiqish ham baxt, aslida. Ortiga qarasa, qanchadan qancha shogirdlar orttirganini, hamkaslarini ko'radi kishi. Hammamizni shu kunlarga yetkazsin!

Azzatjon AZIMOVA

Nuqtayi nazar

# Baho kerakmi?

Manbalarga ko'ra, baho XVIII asrda Yevropada o'ylab topilgan, ammo muallifi nomalum. Unga qadar baholash deyarli bo'lmanan. Bobokalonlarimiz matematika va boshqa fanlarni yaratgan davrda ham baho yo'q edi. Amir Temur bobomizning xotiralarida "Ustozlarim mulla Alibek yoki Abdulla Qutb bugun menga "5" baho qo'ydi", degan joyi yo'ql Oldinlari ustozlar "5" baho olgan bolaga sen samolyotga minding. "4" baho olgan bolaga sen poyezdga minding. "3" baho olganlarga sen bugun otga minding, deyishardi. Samolyot, poyezd, ot reyting tizimining bobosi, ibtidoiy ko'rinishi bo'lgan. Hozir 1-sinfda alifboden chiqqunga qadar baho qo'yilmaydi. Nega endi 1-sinfda baho qo'yaymiz-u, keyin baholashga o'tib ketamiz?

Aslida baho faqat shuning uchun o'qiydigan o'quvchilarga, xo'jako'rsinga ishlaydigan o'qituvchilarga, tekshiruvchilarning "ko'zini bo'yash" uchun rahbarlarga kerak. Haqiqiy bilim olib, fan sirlarini mukammal egallab, kelajakda yurtimizga, xalqimizga sodiq o'g'il-qiz bo'lish uchun intilayotgan o'quvchilarga baho emas, pirovard natija zarur. Balki baho bir paytlar progressiv usul sifatida o'zini oqlagandir, ammo bizning davrimizga kelib, u o'z umrini yashab bo'ldi. Uning o'mini test sinovlari to'liq egallab bormoqda.

Baho o'zi nima? U o'quvchining o'zlashtirishi, olgan bilimi uchun o'qituvchi tomonidan qo'yilgan nisbiy xulosa. O'quvchini qo'rquv va iskanjada tutib turuvchi vosita.

Baho — boshqarishning hayot inkor etib kelayotgan ma'muriy-buyruqbozlik uslubi qoldig'i, sarqiti.

Baho — o'quvchi uchun o'qituvchini chalg'itish, aldash vositasi.

Baho — o'quv maskanida demokratiya, insonparvarlik, oshkoraliq, fikrlar xilma-xilligi tamoyillarini to'xtatib turgan to'siq, g'ov.

Baho — o'quv-tarbiya ishlarining "oyog'idan tortib turuvchi", bilimsizlikni xaspo'shslash uchun kerak bo'lgan vosita.

Baho — o'qituvchi bilan o'quvchining "yashinmachoq" o'yini.

Baho — o'qituvchini ham, o'quvchini ham yalqovlashtirib qo'yadigan omil.

Baho — ota-onani g'aflatda, armonda goldiruvchi zahar.

Baho — puch yong'oq.

Baho — o'quvchining qiziqishi va intilishlarini to'xtatib turuvchi temozdir.

Va niyoyat, baho o'quvchilar oyog'iga taqilgan kishandir. Undan chiqib ketish o'ta mushkul, ammo mumkin.

U yoki bu fandan bir darsda baho olgan bola hafta-o'n kun shu fandan berilgan uga vazifani tayyorlamaydi. Chunki muallim bir darsda nari borsa 4-5 boladan o'tilgan mavzuni so'rab ulguradi. Sinfda esa 30—35 bola o'qiydi. Demak, unga navbat yana 3 haftadan keyin keladi.

Maktabda bolaga "5" baho qo'yib, qo'litig'ini puch yong'oqqa to'ldirib yuboramiz. Keyin u oly ta'limga muassasasiga kirish imtiyonidan "yiqilib" keladi. Olti oy repetitorga qatnab, (repetitor baho qo'yaydi), oly o'quv yurtiga o'qishga kiradi. Mana bahoning nisbiyligi.

To'g'ri, haqiqatga ancha yaqin, foydalijihatlari ham ko'p. O'z ustida muntazam ish-

lab, xalq ta'limini rivojlantirishga munosib hissa qo'shib kelayotgan o'qituvchilarimiz barcha tuman, shaharlarda ko'plab topiladi. Biz ular bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

O'zingiz bir o'ylab ko'ring. Hakim "3" baho qo'qishi mumkinmi? Undan qanday shifokor chiqadi?! U bemorni chala davolaydi, xolos. Yoki doktorlik dissertatsiyasini "3", "4", "5" bahoqiga yoqlabdi, deb eshitganmisiz?! Yo'q! Bunaqasi hali bo'lmanan. Falonechi odam doktorlik dissertatsiyasini yoqlabdi yoki yoqlamabdi, deb eshitib turamiz.

O'quvchilar o'qituvchilarini ikki toifaga: bahosi qimmat va bahosi arzonqa bo'lib olishgan. Darvoqe, sinfda o'qiyotgan 30—35 nafar o'quvchining hammasiga "3" yoki "4" baho qo'yib bo'lmaydi. Demak, istalgan sinfdagi o'quvchilarning taxminan, 10—15 foiziga "5" baho, 40—50 foiziga "4" va qolgan 30—35 foiziga "3" baho qo'yiladi. Bu standartga, qolipga aylanib qolgan. Qishloq maktabida ham, shahar maktabida ham shu standart. Mabodo, o'zlashtirish bundan past bo'lsa, quyib o'g'indagi kattalar yuqoridaq rahbarlar tomonidan "do'pposlanshi", "tayoqning tagida" qolishi aniq. Shu bois ham baho oshirib qo'yiladi. Bu isbotlab bo'lmaydigan aksiomaga aylanib ulguragan! Necha yillardan buyon birorta ham maktabda biror o'quvchi sinfdan sinfga goldirilma-yotgani fikrimiz dalilidir.

Tumanlardan biridagi maktabda ishlaydigan o'qituvchi savollarga javob berolmay qolgan o'quvchiga: "O'tir, bahong "1", der, choraklik bahosini chiqarish payti o'sha mash'um, kichkinagini tayoqchani "3", "4" ga mahorat bilan aylantirib qo'yari ekan. Anasizga ko'zbo'yamachiligidu, qo'shib yozish!

Baho — ilming kushandas. U bor joyda haqiqiy ilm bo'lmaydi. Baho uchun emas, ilm uchun o'qimoq kerak! Undan qancha tez voz kechsak, shuncha tez fan cho'qqilarini mustahkam egallab, dunyoغا chiqamiz va fan bobida yana bir karra dunyo ahlini lol qoldiramiz. Buning uchun reyting tizimiga o'tishimiz shart!

Angor tumani

Eson MARDON

## O'qituvchi minbari

Inson hayoti davomida amalga oshirgan ishlari uchun ma'lum ma'noda rag'batga ehtiyoj sezadi. Biz ongi ravishda bir-birimizning harakatlarimizga munosabat bildiramiz va uni har tomonlhma baholashga harakat qilamiz. Bunday baholashga bo'lgan ehtiyoj, ayniqsa, bolalarda kuchli. Biror ishni qoyilmaqom bajargan farzandingizga "Barakalla, o'g'lim!" yoki "Yashavor, qizim!" qabilidagi rag'batlaringiz — ular uchun katta mukofot. Buning evaziga ular ishni yanada yaxshiroq bajarishga astoydil kirishadi. Xususan, asosiy faoliyat bilim olish bo'lgan maktab o'quvchilarida "5" bahoga intilish kuchlidir.

## "5" ning qadri

Bugun maktablarda, o'quv daroholarida o'quvchilar faoliyatini baholash mezoni o'zini oqlayaptimi? Aniqroq atyganda, bugungi "5" baholalarimizning qadr-qimmati va ahamiyati nechog'lik?

O'quvchilik yillarim matematika o'qituvchimiz bo'lardagi. Darslarda yaxshi o'qishga qancha urinmay, menga faqat "4" qo'yar edi. O'rtoqlarim ichida ikkitasi doimo "5", qolganlari ham o'ziga yarasha "4" yoki "5" oladi. Bir kuni berilgan nazorat ishidagi topshiriqlarini to'liq (do'stlarim yordamli bilan) bajari topshirdim. Baholar e'lon qilinganda menga yana "4" qo'yilgani ma'lum bo'ldi. Bundan norozi bo'lganimda ustozdan "Sen hali "5"ga loyiq emassan" degan javobni eshitdim va juda ranjidim. Lekin yillar o'tib, uning fikri to'g'ri ekanini vaqt ko'rsatdi. O'sha "5" ga o'qigan do'stlarimizda alohida matematik qobiliyat, menda esa gumanitar fanlarga layoqat borligi o'z isbotini topdi. Bitiruv attestatim matematikadan "4" bo'lishiga qaramasdan, boshqa fanlar a'lo bo'lgani bois "5" ball bilan baholangan va olyioghoga qabul qilinganman. Do'stlarim orasida oltin medal olib, imtiyoz bilan o'qishiga kirganlar ham bor. Demoqchimanki, u vaqtli attestat baholari to'liq inobatga olinar va o'qituvchilar qo'yigan baholarning qadri ancha baland edi. Hozir esa vaziyat tamoman o'zgargan. Nazarimda, bugun o'quvchining bahosi ko'proq sinf va maktab hisoblari uchun, qolaversa, farzandining kundaligidagi baholalaridan (qanday olgandan qat'i nazar) mag'rurlanadigan ona yoki baholarni tahlil qilib, nazorat qiladigan ayrim otalar uchun zarurdek.

Har holda maktablarda a'lochi o'quvchilar haftalik, oylik, choraklik, yillik, rag'batlantirish boriladi. Shu o'rinda yana bitta gap: olyioghurga kirish imtiyonlarining test sinovi asosida o'tkazilishi va maktabning bahosi bunda ahamiyatsizligi ham baholash qadrining pasayishiga

sabab bo'lmoqda. Bugun attestatdagi baholardan qat'i nazar, alohida fannlardan tayyorlanib, kerak bo'lsa, yodlab bo'lsa ham o'qishga kirish asosiy maqsad bo'lib goldi. Buni hech birimiz inkor etolmaymiz.

Keyingi yillarda maktablarda o'quvchilarni baholashning yana bir usuli paydo bo'ldi. Ya'ni o'qituvchi o'quvchi kundaligiga bir soatlik darsda 5/5 shaklida ikki yoki uchta, hatto to'rt-beshtagacha baho qo'yamoqda. Lekin sinf jurnaliga faqat bittasi qayd etiladi. "Texnologiya ijodkorlari" — yoshlardan so'rasam, darsni o'zlashtirgani, uy vazifasi, mustaqil ishi va hokazolarni bajargani uchun qo'yildi, deya izoh berishdi. Agar o'quvchi dars mavzusini aytib bersa-yu, ugya vazifani bajarmay kelsa, unda nima bo'ladi? Baho 2/5 shaklida bo'ladi mi? Qaysi buri sinf jurnaliga qayd etiladi? Menimcha, "a'lo" baho hamma ko'rsatkichlarni bajargan o'quvchiga, kamchiligi bo'lsa, yaxlit holda "4" yoki "3" qo'ygan ma'qul. Yuqorida gicha baholash davom etsa, har darsda mavzuni aytib berib bitta "5" oladigan o'quvchi bilan bir darsda ko'rsatkichlarni bo'yicha to'rtta "5" oladigan o'quvchining mavqeyi (baholar soni) tenglashib qolmaydim? Nazarimda, bu shaklda baholash faqat kundaliklarini to'ldiradi, baholarini "ko'zko'z" qiladigan, faqat shuning uchun o'qiydigan o'quvchilarga zarurdek. Haqiqiy bilim olish ishtiyoqidagi bola uchun bu ortiqcha dahmaza, xolos. Bu baholash usulini qoralashdan yiroq-miz. Uni asosan boshlang'ich sinflarda qo'llagan ma'qul. Negaki, kichik yoshli bolalar ruhiyatida ko'proq baho olishga intilish kuchli.

Prezidentim tashabbusi bilan umumiyy o'rta ta'limga maktablarida oltin va kumush medallarning ta'sis etilishi ta'limga e'tiborni yanada oshirish bilan birga, o'quvchilarga qo'yilgan tababin ham kuchaytiradi. Endi bu talab o'quvchilarni har tomonlhma e'tibor bilan baholash vaqtli kelganini bildiradi. O'quvchiga qanday dars o'tamiz, ularni o'quv mashg'ulotlariga qanday qiziqti-ramiz va albatta, qanday baholash usulalaridan foydalananiz — bu haqda hammaning o'z fikri va xulosasi bor, albatta. Barchamizning maqsadimiz bitta: yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash.

Keldiyor XUDOVOROV,  
Xatirchi tumani idarasi  
52-maktab o'qituvchisi



1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni

# Boston qayda edi, ustoz bo'lmasa?..

**1-boshlovchi:**

— Assalom, ustozlar, mehri daryolar,  
Ilm-fan bog'ida asl donolar!

**2-boshlovchi:**

— Bugun qarshingizda yosh shogird bo'lib,  
Yuraklar limmo-lim zavq-shavqqa to'lib,  
Sha'ningiz ulug'lab she'rlar ayтурмиз,  
Ustozga bir umr ta'zim qilurmiz!

**1-boshlovchi:**

— Assalom alaykum, mehri daryo, qalbi quyosh,  
yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishdek ezgu ishga qalb  
qo'rini, bor mehrini baxshida etib kelayotgan jonkuyar,  
fidoyi muallimlar, aziz ustozlar!

**2-boshlovchi:**

— Assalom alaykum, aziz mehmonlar hamda  
o'quvchilar! Xalqimizda o'qituvchilik azal-azaldan  
e'tiborli kasb sanalgan. Dunyoning hech qaysi mam  
lakatida o'qituvchi-murabbiylarga nisbatan bu qadar  
e'tibor qaratilmagan. Respublikamiz Prezidentining  
farmoni bilan 1997-yildan boshlab 1-oktabr "O'qituv  
chi va murabbiylar" kuni umumxalq bayrami sifatida  
nishonlanmoqda.

**1-boshlovchi:**

— Ustozlarga bag'ishlab o'tkazilayotgan bugungi  
bayram kechamizni Davlatimiz madhiyasi bilan bosh  
laymiz.

(O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi  
o'quvchilar tomonidan xor bo'lib kuylanadi).

*She'r: "Ustoz — otangday ulug'!"*

**1-o'quvchi:**

— Ustoz — otangday ulug', ustoz qadami qutlug',  
Ustozning har kalomni ilm-u hikmatga to'liq.  
Ustozning dili ravshan, ustoz makoni yorug',  
Unib chiqar, albatta, ustoz tashlagan urug',  
Ustoz qadami qutlug', ustoz — otangday ulug'!

**2-o'quvchi:**

— Temur bosh qo'ysi mangu ustozining poyiga,  
Ustoz o'xshar olamning quyoshiga, Oyiga,  
Bilim nuri yog'ilar qadam qo'yan joyiga,  
Yo'llar adolat, vafo, muhabbat saroyiga,  
Ustoz qadami qutlug', ustoz — otangday ulug'!

**3-o'quvchi:**

— Ota-onal farzandni keltiradi dunyoga,  
Ustoz esa cho'mdirar ilm-u hikmat, ziyyoga,  
Yerdagi bolalarni ko'taradi samoga,  
Ota-onal fanozin aylantirar baqqa,  
Ustoz qadami qutlug', ustoz — otangday ulug'!

**4-o'quvchi:**

— Deydilar, ustoz jabri — ota mehridan afzal,  
Shogirdlarning iqibili — ustoz jabriga badal,  
Navoiy demish: Kasbni egallagin mukammal,  
Saodatning kaliti, bilgilki, ilm-u amal,  
Ustoz qadami qutlug', ustoz — otangday ulug'!

**5-o'quvchi:**

— Najot gulin o'stirav Avloniy gul bog'ida,  
Haq olinur berilmas — Behbudiy sabog'ida,  
Oqilxonning siyososi "Alifbo" varog'ida,  
Ustozlar iyindan yozaq qasidam adog'ida,  
Ustoz qadami qutlug', ustoz — otangday ulug'!

*Qo'shiq: "Ustoz yaxshida" (Yigit-qizlar jo'rovozda  
ijro etishadi).*

Yiqilsang, qo'lingdan tutadi,  
Sog'inib yo'lingni kutadi,  
Duosi ko'klarga yetadi,  
Ustoz yaxshi-da, yaxshi-da,  
Ustoz yaxshi-da...  
Avaylab tuzatar xatoni,  
Tanitar senga keng dunyon,  
Oftobdekk issiqdir ruxsori,  
Ustoz yaxshi-da, yaxshi-da,

Ustoz yaxshi-da...

**Naqorat:**

Onadek azizdir, otadek aziz,  
Tanib bo'larmidi dunyoni usiz!  
Har qancha tursak ham xizmatida biz,  
Ustoz yaxshi-da, ustoz yaxshi...  
Buyuk maqsadlar bor dilimda,  
Ustozim, qo'llilarim ko'ksimda,  
Bir umi shogirdlar ta'zimda,  
Ustoz yaxshi-da, yaxshi-da,  
Ustoz yaxshi-da...  
Shogirdin kamolin o'yaydi,  
Doimo haq so'zni so'zlaydi,  
Yo'rug' manzillarni ko'zlaydi,  
Ustoz yaxshi-da, yaxshi-da,  
Ustoz yaxshi-da...

**Hikmatli so'zlar:**

**1-o'quvchi:** — Ustoz — otangday ulug'.  
**2-o'quvchi:** — Ustozsz shogird — jonsiz terak.  
**3-o'quvchi:** — Ustoz ko'rgan xat tanir.  
**4-o'quvchi:** — Usta bo'lsang ham, ustozingni

unutma.

**5-o'quvchi:**

— Jahonda bo'lmasa muallim agar,  
Hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar.

**6-o'quvchi:**

— Ustoz-muallimsiz qolsa bir zamon,  
Nodonlikdan qora bo'lurdi jahon.

**7-o'quvchi:**

— O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lur,  
Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lur.

**8-o'quvchi:**

— Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,  
Aylamak bo'imas ado oning haqin yuz ganj ila.

**9-o'quvchi:**

— O'quv qunt beradi, ilm sharaf-shon,  
Ikkovi tufayli ulug'dir inson.

**10-o'quvchi:**

— Dedilar: Dunyoda kim asli aziz,  
Aytildilar: Ustozdir, ustoz begumon.

Tag'in aytdilarki, aziz, shubhasiz,  
Ustozin qadriga yetolgan inson!

*Qo'shiq: "Ustozim" (Yakkaxon ijro)*

Qalb nurini taratgan,

Shodliklari osmonim,

Hayot yo'lin yoritgan

Shirinzabon ustozim!

Butun olam o'zingiz,

Kulib boqar ko'zingiz.

Quvonchlarga to'ling siz,

Siz bahorim, ustozim!

Shirin so'zim, kuylarim,

Qo'shiqlarim, o'ylarim.

Siz-la baland bo'yalarim,

Ko'ztumorim, ustozim!

Shodliklarim, osmonim, ustozim,

Har bir so'zi dostonim, ustozim.

Tog'dek baland g'ururi, ustozim,

Ko'ngil bog'i bo'stonim, ustozim!

*(Ohista taralayotgan musiqa ohanglari ostida  
sahna ko'rinishi namoyish etiladi).*

**1-boshlovchi:** — Qadim-qadim zamonda bir bog'  
bon bo'lgan ekan. U doimo daraxt ko'chatlarini ekip,  
yangi-yangi bog'-bo'stonlar yaratarkan. Kunlarning  
birdira uming yoniga bir kishi kelib debdi:

— Yoshingiz anchaga borib qolibdi, bu nihollar

qachon hosil beradi-yu, ularning mevalaridan qachon  
bahramand bo'lasiz?

**Mo'y safid:** — Men ko'chatlarimni faqat o'zim  
uchun ekkanim yo'q. Ularning mevasini barcha bir  
dek baham ko'rsin. Men uchun eng muhim, o'stirgan  
daraxtlarimning keyingi avlodlarga naf keltirishidir.

**2-boshlovchi:** — Ustozlarimiz ham xuddi bog'-u  
chamanzorlar bunyod etuvchi beminnat bog'bonlarga  
o'xshaydi.

**1-boshlovchi:** — O'qituvchilar o'quvchilarni o'z  
farzandlaridek asrab-avaylab voyaga yetkazadi. Ular  
ga ta'lim berib, odob-axloqqa o'rgatadi, kasb-hunarga  
yo'naltiradi.

**1-o'quvchi:**

— Sizning ta'limingiz olmagan kim bor?  
Siz-ku yuraklarda ilk ziyo yoqqan.

Olimmi, shoirmi va yo san'atkor,  
Ilk bor sizga tomon ustoz deb boqqan.

**2-o'quvchi:**

— Bitta harf dardida riyozat chekib,  
Oqibat ko'kka ham chiqolgan inson.  
Ne ajab, sizlarni baxtiyor etib,  
O'rnidan dast turib, bosh egas shu on.

**3-o'quvchi:**

— Buyuk Alisherdek lutf etgan misol,  
Savod o'rgatdingiz qancha ranj bilan.  
To'lab bo'larmikan bu qarzni, alhol  
Uzib bo'larmikan yuzta ganj bilan!?

**"Mustahzod"** (Raqsida qizlar).

*She'r: "Ustoz bo'lmasa"*

**1-o'quvchi:**

— Ilymon qayda edi, ustoz bo'lmasa,  
Urfon qayda edi, ustoz bo'lmasa.  
Sohibqiron qayda, Navoiy qayda,  
Cho'lon qayda edi, ustoz bo'lmasa!

**2-o'quvchi:**

— Yo'qsillar yurtiga dunyo keltirgan,  
Sahrolar bag'riga daryo keltirgan,  
U yurtdan bu yurtga ziyo keltirgan,  
Karvon qayda edi, ustoz bo'lmasa!

**3-o'quvchi:**

— Muallim atalgan, buyuk atalgan,  
Ardoqlangan, mudom suyuk atalgan,  
Olti asr avval ko'kka qadalgan,  
Narvon qayda edi, ustoz bo'lmasa!

**4-o'quvchi:**

— U shunday yashaydi, tug'ilgan shunday,  
Zarrasi behisob bir siqim qumday,  
Mardlikdan dars olgan Jaloliddinday,  
O'g'lon qayda edi, ustoz bo'lmasa!

**5-o'quvchi:**

— She'r bitsam, so'z topib g'amimmi yegan,  
Ko'ngil deb atalmish zo'r ilhom bergan.  
Chor tarafi gulzor she'riyat degan,  
Bo'ston qayda edi, ustoz bo'lmasa!

**6-o'quvchi:**

— Shogirdlar kamolin ko'rib baxtiyor,  
Yurtga xizmat qilsa, tuyar iftixor,  
Niyati, amali ezgu, ulug'ver,  
Inson qayda edi, ustoz bo'lmasa!

**1-boshlovchi:**

— Aziz ustozlar, sizlarni yana bir bor qutlug'  
ayyomingiz bilan chin qalbimizdan tabriklaymiz.

**2-boshlovchi:**

— Shogirdlaringiz va farzandlarining baxtini, ka  
molini ko'rish barchangizga nasib etsin. Shu bilan bu  
gungu bayram tadbirimiz o'z nihoyasiga yetdi. E'tiborig  
uzch uchun rahmat!

Sarvinoz NIZOMOVA,

Kitob tumanidagi

5-maktabning musiqa fani o'qituvchisi

Mushtariy muhokamasi

# Qayta tayyorloving o'zi kifoyami?

**Ch**et tilini bilgan mutaxassisiga talab yuqori. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'lum jarayonidan boshlab o'quvchilarga ingliz tilidan so'zlashuv saboqlari o'rgatila boshlandi. Maktabning boshlang'ich sinfidanoq chet tili uchun dars soatlari ajratildi. Ota-onalar orasida ham farzandini ingliz tili o'quv kurslari, qoshimcha darslariga berish istagi kuchaydi. Ammo so'nggi yillarda chet tillari orasida faqat ingliz tilini o'qitishga katta urg'u berilyotgani boshqa tillardan saboq beruvchi o'qituvchilarda e'tiroz uyg'otyapti. "Telegram" tarmog'idagi "Ma'rifat" mushtariylari guruhida bu borada ham bahs yuritildi.

**Marhabo SATTOROVA:**

Hozirda ingliz tili butun dunyo tiliga aylanib ulgurdi. Yoshlarimiz bu tilni mukammal o'rganishlari juda katta yutuqlar kalitini qo'lg'a kiritishlari bilan barobar. Shunday ekan ingliz tilini o'qitishga bo'lgan katta e'tiborni to'g'ri qabul qilaman, ammo bu boshqa chet tillarni bir chetga surib qo'yish evaziga bo'lmasligi kerak. Men nemis tili fani o'qituvchisiman. Bu tilni bolaligimdan yoqtirib o'rgangaman. Hozir ham nemis tilini o'rganishga qiziqadigan o'quvchilar talayginga. Ilgari nemis, fransuz, arab, hind, fors, yapon tillarini chuqu o'rganadigan maktablar bor edi. Bu maktablarining ana shu tillarni o'qitish bo'yicha katta tajribasi, malakali o'qituvchilari bor. Shunday ekan ushbu tillarni ham o'qi-

tishni cheklamaslik, o'quvchining ham tanlashiga imkoniyat berish kerak, deb hisoblayman. Bir nechta sinfga 1-sinfdan 3-sinfgacha nemis tilini o'qitdim, bu yil ingliz tili o'qituvchisi kelganini eshitib ayrim ota-onalar nemis tilini rad etishyapti. O'tgan yillari men bu sinflar bilan astoydil ishlagan edim. Mehnatimi zoye ketganiga achindim, ammo tortishmadim. O'sha sinflarga yangi o'quv yilidan ingliz tili o'qitila boshlandi, ammo bolalarning o'zlarini nemis tilini o'rganishni xohlashadi.

**Hoshim HAKIMOV,  
Kitob tumanidagi  
79-maktab o'qituvchisi**

Nemis tili o'qituvchilari ingiliz tilidan dars berish uchun qayta tayyorlova o'qib kelishyapti. Hech bir mutaxassis olti oyda ingliz

tilini saboq berish darajasida o'rgana olishiga ko'zim etmaydi. Natijada bilsiz, dars berishni eplolmaydigan o'qituvchilar ko'payadi.

**Shohrux ABDURAIMOV,  
filolog**

Bu zamon talabi. Ingliz tilining ahamiyati yuqori bo'lgani uchun ko'pchilik bolasi ingliz tilini o'rganishini xohlaydi. Ammo nemis yoki fransuz tilini mukammal o'rgananlar doim yutgan.

**Tohira  
SHOKIRXONOVNA**

Ingliz tili nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda xalqaro til maqomiga ega. Xalqaro tashkilotlar, universitetlar ingliz tilida faoliyat olib borishni ma'kul deb bilyaptilar. Sababi oddiy: ingiliz tili allaqachon ko'pgina davlatarning rasmiy yoki ikkinchi tiliga aylangan. IELTSdan 7 ball to'plagan shaxsni dunyodagi eng nufuzli kompaniyalar yuqori maosh bilan ishga taklif qilmoqda. Qolaversa, nodir adabiyotlarni ingliz tilida be-mal topa olasiz.

**Barno NURIDDINOVA,  
Uychi tumanidagi  
18-maktab o'qituvchisi**

Maktabimizda bir nemis tili o'qituvchisi qayta tayyorlovdan o'tib, ingliz tilidan dars bera boshladi. U timisiz o'z ustida ishlab, 1-toifaga ko'tarildi. Demak, intilgan o'qituvchi ingliz tili bo'yicha ham yaxshi mutaxassis bo'la oladi. Bu yil maktabimizda yana nemis tili o'qitila boshladi. 1-sinfning yarmi nemis, yarmi ingliz tilini o'rganishyapti. Ayrim ota-onalar farzandi ingliz tilidan ko'ra nemis tilini o'rganishini xohlashadi. Sababi, nemis tilini o'rganish ingliz tiliga nisbatan oson. Ingliz tili biroz murakkab. Shu sabab 1-sinfdan nemis tilini o'rganib, 3-sinfdan xohishga ko'ra ingliz tilini qoshimcha tarzda o'rganish ham foydadan xoli emas. Chet tillarni bilish o'quvchiga ortiqchilik qilmaydi. Xoh nemis tili, xoh fransuz, xoh sharq tillari bo'lsin, bunday mutaxassisga bugun ham, ertaga ham albatta, ehtiyoj bo'ladi. Shunday ekan, faqat biryoqlama qarashdan saqlanaylik.

Z.MADATOVA tayyorladi.

# "Biz uchun uyingizdan jilmay qo'ya qoling, ota-onal!"

"Yerga qarab yur, qanday balo eding", deb qoldi sayrga chiqqan bo'lajak kuyovto'ra! "Men-ku yerga qarab yurarmen, ammo siz — kimsan falonchi boyvachcha yigit shumraygan qizga uylanibdi, degan gapga qolmang, deyman-da, begin", deya "obro" yacheykasi ni qitiqlab qo'ydim, to'ygacha faqat taklifnoma uchun ismimni so'rangan yorimga. Atrofga alang-jalang qilgan bo'lsam kerak-da, toqqimni munchoqlari yuzimga urilgandek bo'ldi-ya! Ishqilib yashab ketay-da, yorimni sokinligidan portlab ketay derdim o'sha paytlar.

Ha, men hatto kelinlik davrlarimda ham mo'mingina, xokisorgina bo'lmagan Mohlaroyimman! Tinib-tinchimasligim Xudoyminga ham yoqib qoldi, shekilli, hayot yo'lim turfa ranglardan iborat bo'ldi! Ko'p hollarda ishingga taksiga ham qanoat qilmay, piyoda ketib qolaman. Maktabning yo'li tor ko'chalardan iborat bo'lgandan keyin yarov yurish afzal-da. Keyin buning ham ilojini qildim — o'zim dan ko'p va xo'p uzoq bo'lgan joydan ish oldim. Arosatda emasman-da, aniq taksida ketaman, piyoda yeta olmayman, ilgari yetib qo'yardim. Qishloqqa borib-kelish maza ekan. Bolaning yig'isi, kelinlarning nolishi, xotinlarning bekorchi erlарidan hasratlari, kampirlarning choli tashab ketgani,

xullas, hamma-hammasidan xabardorman. Butun dunyo hasratlarini miyamda jam qilib, darsga ham kiraman. Shuncha ma'lumotga ega mendan a'lo ustoz bo'lmasa kerak. Qaysi tarvuz yoki qovun yaxshi pishgani-yu, qaysi mayizning ranglangani yoki o'zi qora ekanligicha o'rganib oldim. Ha, kasbimni aytibman-da, fanimni aytmbabman. Hammaga chet tili o'qituvchisiman deyman-u, siz menga yoqib qoldingiz, rostini aytay, sho'ring qurg'ur nemis tili ustoziman.

Bir hamkasbim savol berib qoldi: haligi nemis tili o'lik tillar guruhiqa kiradimi? "Albatta, men o'sha yoqdan kelgan alvastiman", deya bo'g'ib qo'ygim keldi uni. Boshlang'ich sinfga kirsam, yayrab ketaman. Birgalikda kuylaymiz: "Aram

zam-zam, o gul — gul" nima deyotganimizning ahamiyati yo'q. Har zamon o'quvchilarim "ustoz, ingliz tilini qachon o'tamiz, nemis tili tugadimi?" deyishadi, "ozgina nemischa o'tamiz keyin inglizchalaşamiz" deb aldab qo'ygandan keyin shu savol beriladi-da.

Yangi o'quv yilini ham boshlab oldik. Bir shoira opamiz yozgan edilar:

*Turfax xil kiyindim  
kimdir sevsin deb,  
Mehrular beribman  
menga kelsin deb...*

Shu satrlarga doim amal qilaman. Fanimiz ta'lilda "titrab" turgandan keyin, har amalni ishga solib ko'ramizda. O'quvchilarimga ustozni yanada jozibali ko'rinib, fanimga ham jilo berishini ko'zladimmi, salonga kirdim. Kiprik, qoshim, sochim, yuz teri qismim, ko'z qora-chig'im sun'iyligi yetmagandek, qovoqning ham sun'iyi chiqibdi, shahlo ko'zlikkina bo'lib chiqdim salondon. Hech bo'lmasa, ikki kun bolalar yonimdan yugurib o'tmasligi kerak, falon so'mga totib oldim husnimni.

Rahbarim chaqirib qoldilar. Men va "ingliz" hamkasbim sipo bo'lib o'tiribmiz. Darslar



bo'lindimi, so'radi u? "Ingliz" ustoz: menga 28 soat ham bo'ladi, kamina... Barmoqlarimni qisirlatganim o'zimga eshitildi. Rahbar: Nemis o'qiy-digan sinfig bitirib ketdi-ya, afsus... menga hamdard bo'ldi chin dildan. 1-sinfimizga o'tushdimi, ustozim nemis tilini davom ettirsa, daydi xayollar fikratimni yalab o'tdi. O'g'il-cham ostobani necha marta to'ldirib qo'ysam ham, ag'darib zavqlanadi. Nega bunday qilasan desam, qiqir-qiqir kуladi. O'sha ostobaning ahvolida ko'rib ketdim o'zimni. 4 yil o'qib kelishimga qaramasdan ilmimni ostobagi suv kabi to'kib tashlab zavq olishyapti go'yo. Sizga jiddiy yozyad deb qalam olsam, kech bo'lib qolibdi. Uyim ham qurg'ur to'yxonaning yonida, yor-yorlar bosh-

**Marhabo SATTOROVA,  
Nurota tumanidagi  
54-maktab o'qituvchisi**

Dolzurb mavzu



(Davomi. Bosh 1-betda.)

Ta'lim tizimida yozma ishlarning eng muhim va murakkab turlaridan biri insho hisoblanadi. Inshoda o'quchining aynan ana shu tafakkur bilan bog'liq mustaqil fikrash, nazariy bilimlarni egallash va hayotni kuzatishda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarini ifodalash, taassurotlarini umumlashtirish, tahlil qilish, asoslash, xulosa chiqarish, ijodkorlik qobiliyatlar ro'yogba chiqadi. Amalda reyting tizimi talablariga ko'ra, o'quchilar bilimini baholashning birmuncha tezkor va qulay usuli sifatida test sinovi ko'proq qo'llanilishi tufayli yozma ishlarning muhim turi hisoblangan inshoga e'tibor ancha susaydi.

**Taklif.** O'quchilarining yozma va og'zaki nutqini rivojlanishish uchun ularga matn ustida ishslash, ilmiy uslubdagi matnlarni badiiy uslubga aylantirib yozish kabi bir qancha ko'rinishdagi topshirqlarni berish mumkin. Bu topshirqlarni nutq o'stirishga qaratilgan yozma ijodiy ishlarning eng murakkab va o'ta zarur turlaridandir. O'quchchi ilmiy tasvirni badiiy tasvirga aylantirar ekan, ilmiy nutqqa xos bo'lgan ifodalarni badiiy uslubga aylantiradi. Bu esa undan adabiy nutq me'yorlaridan unumli foydalanishni talab etadi.

Keling, o'quchilar bilimida aniqlanayotgan bo'shilqlarni to'ldirish maqsadida yozma ishlarning muhim va sinalgan turi — insho yozish tajribasini amalda kengroq tafbiq etish bo'yicha fikrlashamiz.

"Insho" arabcha so'z bo'lib, "paydo qilish", "yaratmoq", "ijod", "yuzaga ketirish", "yozuv", "sochma asar", "xat" sin-gari ma'nolarni bildiradi.

Insho bu — o'quchilarining tabiiy monologik nutqining yanada mukammal bo'lishiga, yozma nutq tajribasi boyishiga qaratilgan mashq turi hisoblanadi. Bu mashqni yirik hajmla, bog'lanishli murakkab matn debl olishimiz mumkin.

**Matn** — mazmun, uslub va grammatic jihatdan o'zaro bog'langan va aniq ketma-ketlikda joylashgan gaplardan tuzilgan tughallangan asar. Matndagi gaplar zanjir kabi bir-biri bilan bog'lanib kelishi yoki muqobil bo'lishi mumkin. Matn qurilishi yozma nutqning turiga bog'liq.

# Insho yozdirishni bilasizmi?

shakllantirish hamda tarbiyalash uchun, avvalo, unda atrof-muhitga, tabiatga, insonlarga va jonzotlarga nishbatan mehr-u oqibatini hamda kuchli qiziqlishini uyg'otish darkor. Bolani o'zi yaxshi bilmaydigan, yaxshi ko'rmagan, qiziqlishni yozishga majbur qilmagan ma'qul.

**Tahsil.** Odatda, o'quchilar yozgan ijodiy insholarda darslik mualliflari yoki o'qituvchining fikrlariga yopishib olishadi. Yuqori sinf o'quchilarin insholarda izchillik, anqlikning yetishmasligi, xulosa chiqarishni va reja bandlarining me'yorini bilmastigi aniqlangan. Buning asosiy sabablarini ularning yozma ishni qanday bajarishni bilmastigi, o'z fikrini ifodalashga o'r ganmagani, qahramonlar haqida shaxsий qarashlarining yo'qligidir. Uyga berilgan yozma ishlarning ko'philigi ko'chirilgan bo'ladi. Aksariyati o'quchilarining boshqa yo'li ham yo'q. Ular nimani, qanday yozishni bilmaydi. O'quchilar dars jarayonida insho yozish uchun atigi 45 daqiqa ajratiladi. Shu 45 daqiqa o'quchchi inshoning qoralama variantini oqqa ko'chirishga ham ulgurishi kerak. Bu qisqa vaqt ichida bula qandaq qilib inshoni yozishadi?! Bilihimcha, o'qituvchining o'z ham bu vaqtida insho yozib bera olmaydi. Natijada o'zimiz o'quchini "ko'chirmakashlikka" o'rgatayapmiz!

Xatolar ustida ishslash uchun 45 daqiqa belgilangan. Nima, o'quchchi 45 daqiqada yozib tugata olmagan inshosining xatolari ustida 45 daqiqa ishshasi kerakmi?! Bu yerda aybdor o'qituvchi emas, o'qur reja da nazorat ishlarga ajratilgan soatlarining noto'g'ri belgilanganligidir! Buning oldini olish uchun nima qilish kerak?

**Taklif!** Buning oldini olish uchun nima qilish kerak? Agar Sanitariya-epidemiologiya me'yorlariga riyoq qilinsa, o'quchichiga erkin mavzudagi insho uchun 60 daqiqa, adabiy mavzudagi insho uchun 80 daqiqadan kam vaqt ajratilmasligi kerak. O'quchilarining yozma ishlarning tashkil etishdan oldin ularning insho yo'za olish kompetensiyasini aniqlash lozim. Buning uchun dars jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarining to'g'ri shakllanganligini aniqlash kerak. Chunki insho yozish vaqtida o'quchchi oldindan egallagan bilimini hayotda qo'llay olish (amaliy va nazariy holatlarda) layoqatini ko'rsatadi. O'quchchi insho yozganida uning kompetensiyasi (layoqati) shakllanganlik darajasi aniqlanadi va baholanadi. Xatolar ustida ishlanganda qo'shimcha ma'lumot berib, bo'shiqliq va 'Idirilish boriladi. Shu tariqa o'quchida mustaqil fikrash ko'nikmasi, sog'gom ma'naviy tushunchalar shakllantiriladi.

**Taklif!** O'quchini o'zi yaxshi bilgan, ko'p o'yagan narsasi haqidagi insho yozishga o'rgatish kerak. Yaxshi bilmagan, tushunmagan mavzusi haqidagi azobli narsa yo'q. Bu esa bolani haqiqiy ko'chirmakashlikka yetaklaydigan yo'ldir. O'quchchi shaxsida ijodkorlikni, bezovta — uyg'uoq galbini tarbiyalash, vatanga, ota-ona va yaqinlariga nisbatan muhabbatni

Afsuski, o'qituvchilar ko'pincha buning aksini qilishadi! Xo'sh, hozirgi zamон o'qituvchisi yuqorida keltirilgan talablar asosida ta'lim jarayonini olib boryaptimi, degan savolga qanday javob bergan bo'lardiriz?!! Albatta, yo'q deya javob beramiz!

Masalan, davlat (o'zbek) tili hamda ona tili va adabiyot fanidan namunaviy o'quv dasturlarida olib boriladigan nazorat ishlarning turlari bo'yicha ma'lumot berilmagan. O'qituvchining o'zi taqvim rejasiga asosan nazorat turlarini belgilab olishi mumkinligi tushuntirilgan. Natijada o'qituvchi nazorat turlarining tizimligi va o'quchilarining yosh xususiyatlarini ino-batga olmaydi.

Masalan, rusiyabzon o'quchilar davlat (o'zbek) tili fanidan nazorat ish turlaridan faqatqiga matn yaratish va test topshirqlarini bajarish bilan chegaralanib qolishgan. Bu esa o'quchilarining nutqiy va lingistik kompetensiyalarining shakllanishiha to'sqinlik qiladi. Nazorat ishlarning bayon va insho kabi turlari bo'yicha o'quchilar umuman tasavvura ega emas. So'z va uning ma'nolari ustida ishlay olish, nutqda so'zdan to'g'ri foydalanishni bilmaydi va eng achinarli, o'quchilarining so'z bo'yig'i yetarli emas. Axir bunday holat, o'qituvchining tafakkuri bilan bog'liq mustaqil fikrash, egallagan nazariy bilimlarni hayotda qo'llash, hayotni kuzatishda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarini ifodalash, taassurotlarini umumlashtirish, tahlil qilish, asoslash, xulosa chiqarish hamda ijodkorlik qobiliyatlari shakllantirilmayapti, degan xulosaga olib bormaydimi?!

Ta'lim jarayonida nazorat ishlarning "oddidiy murakkabga" tamoyiliga asosan olib borilmasligi, o'quchilar yozma va og'zaki nutqining shakllanishida aymrimu amummolarni keltirib chiqaryapti. Insho o'qituvchining shaxsий nutqiy va lingistik malakasini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu ikki yo'nalishdagi ish nutqiy faoliyatni takomillashtirish hamda nutqiy ko'nikmalarning har birini shakllantirishni o'zida yuqashtirishgan ijodiy ishlarning bir ko'rinishi sanaladi.

Insho o'qituvchining shaxsий nutqiy va lingistik malakasini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu ikki yo'nalishdagi ish nutqiy faoliyatni takomillashtirish hamda nutqiy ko'nikmalarning har birini shakllantirishni o'zida yuqashtirishgan ijodiy ishlarning bir ko'rinishi sanaladi.

Insho o'qituvchining shaxsий nutqiy va lingistik malakasini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu ikki yo'nalishdagi ish nutqiy faoliyatni takomillashtirish hamda nutqiy ko'nikmalarning har birini shakllantirishni o'zida yuqashtirishgan ijodiy ishlarning bir ko'rinishi sanaladi.

**Taklif!** Astida, davlat tili fanidan zamon talablarini asosida innovatsion nazorat ish turlaridan unumli foydalani, quydagicha tizimlikni asos qilish mumkin edi:

- 1) 2-3-4-sinflar uchun diktantlar (lug-at-videolug-at-saylanay diktant...);
- 2) 5-6-sinflar uchun bayonlar (matnli-layhali bayon...);
- 3) 7-8-sinflar uchun matn yaratish (mikromatn-makromatn videoamatn...);
- 4) 9-10-sinflar uchun insho (rivoya insho-tasvirly insho-muhokama in-sho...);
- 5) 11-sinflar uchun videoinsho (in-sho-videoinsho...).

Xuddi shunday holatni o'na tili va adabiyot fanlarida ham kuzatish mumkin. Biz o'quchilarida og'zaki va yozma savdonxonlik darajasi tushib ketyapti, deymiz, qayg'uramiz. Biroq uning yechimini to-pishga harakat qilmaymiz!

**Taklif.** Ona tili va adabiyot fanidan ham tizimlik asosida nazorat ish turlarini belgilab chiqish kerak. Bugungi kun o'quchisi

nano texnologiyalar asrida yashamoqda. Shuning uchun biz odatlanib qolgan insho yozdirish uslubi endi o'quchchi uchun biroz zerikari tulyuladi. Natijada u tezkor va ommabop axborot manbayi — internetdan tayyor matnni ko'chirib qo'ya qoladi.

**Videoinshoni yaratishda quydagi harakatlar amalga oshiriladi:**

- 1) insho yoziladi;
- 2) o'qituvchi tonomidan tekshirilgan insho muallif tonomidan o'qilib, ovozi kompyuter yoki telefon diktofoniga yoziladi;
- 3) insho mazmuniga mos kuy tanلانdi;
- 4) insho mazmuniga xos videolavhalar tayyorlanadi;

5) "Ulead VideoStudio", "Corel Video-Studio", "CyberLink PowerDirector", "Movavi Video Suite", "Adobe Premiere Pro", "Pinnacle Studio" dasturlari yordamida ularni (ovozi, matn, rasm, kuy va videolavhalar) birlashtirib videoinsho hosil qilindi.

Videoinshoning asosiy matni ustida ishslash, videoinshoning kirish qismida mavzu bo'yicha lo'nda va aniq fikrlarni bitish maqsad ufovfigidir. Shuningdek, bu qismida mavzuning g'oyaviy yo'nalishlari haqida ham yozilishi mumkin. Bu qism umumiy ishning 15 foizigacha bo'lgan hajmini tashkil etadi.

Videoinshoning asosiy matni ustida ishslash, videoinshoning kirish qismida mavzu bo'yicha lo'nda va aniq fikrlarni bitish maqsad ufovfigidir. Shuningdek, bu qismida mavzuning g'oyaviy yo'nalishlari haqida ham yozilishi mumkin. Bu qism umumiy ishning 15 foizigacha bo'lgan hajmini tashkil etadi.

Videoinshoning asosiy qismi mavzusing butun mazmuni, g'oyaviy uyg'unliklari va yo'nalishlari, o'quchilarining yozishda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarini ifodalash, taassurotlarini umumlashtirish, tahlil qilish, asoslash, xulosa chiqarish hamda ijodkorlik qibiliyatlari shakllantirilmayapti, degan xulosaga olib bormaydimi?!

Videoinshoning intervju qismida o'quchchi yaratgan videoinshoning kulminatsion nuqtasi hisoblanadi. Unda o'quchchi kamera qarshisida mavzuning eng dolzar joyi haqida intervju beradi.

Videoinshoning asosiy qismi umumiy ishning 70 foizini tashkil etadi. Xulosa qismida insho mavzusi yuzasidan umumiy xulosalar ifodalaniadi. Mazmunning hoziragi davr bilan bog'liq jihatlar, asarning tarbiyaviy ahamiyati, timsollarning zamondoshlar uchun namunaviy tonomlari haqida fikr yuritiladi.

Har bir so'zni o'z o'rnida qo'llash, adabiy bilan me'yorlariga riyoq qilish inshoning qimmatini oshiradi. Yozilayotgan har bir gapda ijodkorlik va mustaqil fikrash, barq urub tarmog'i lozim. Eng asosiyisi, insho matniga mos kuy va lavha tanlashdir.

**Fanga doir:** lingistik kompetensiya — o'qituvchining yoshiga, dunyoqarashi, fikrash, doirasini o'zida yuqashtirishga egaligini anglatish uchun mavzuga har tonomlama mos keladigan lavhalalar hamda unga ohangdosh tarzda janglovi musiqasi va lavhalarga mos va monand bo'lishi maqsadga muvofiqidir.

Videoinshoning intervju qismida o'quchchi yaratgan videoinshoning kulminatsion nuqtasi hisoblanadi. Unda o'quchchi kamera qarshisida mavzuning eng dolzar joyi haqida intervju beradi.

**O'quchilar videoinshoni yaratishda quydagi kompetensiylar shakllanadi:**

**Ta'limiy natijalar:**

- o'qituvchining yozma va og'zaki nutqiy shakllanishi. Tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- insho mavzusi asosida fikrini bayon etish orgali talaffuz malakasi va lug'at boyligi oshadi;
- darslarda berilayotgan grammatik va leksik materiallarni o'ziga singdirib, amalda tatbiq etishga harakat qiladi;
- bosqicha fanlar bo'yicha olgan bilimlarini dars jarayonida olganda o'qituvchisi



uyg'unlashtirib, fanlar orasida bog'liqlik vujudga keltiriladi.

**Tarbiyaviy natijalar:**

- o'quchchi mustaqil ishlaydi, ijodkorlik faoliyat oshadi;
- zamonaliv axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (kompyuter, internet, kamera...) foydalananin o'rganib, malakasini oshirib boradi;
- o'qituvchining falsafiy fikrash qobiliyati shakllanadi;

- boy madanly va ma'naviy mero-simiz, milliy urf-odatlarimizni, milliy adobdarimiz ijodini, ilm va ma'rifatni e'zozlash tuyg'usi shakllanadi;

- ayrim ma'lumot, dalillarga nisbatan tug'ilgan shaxsiy fikr-mulohazalarini bildirishga, ayrim ma'lumotlar yuzasidan o'z fikrini o'taga tashlashsha tabiiy ravishda intilish, ularni asoslash va dailil keltirish malakalari shakllanadi;

- qo'shimcha badiiy adabiyotlar o'qiydi;

- mustaqil kuzatish olib boradi;
- tasnifi va taqqoslash (ya'ni, pedagogik texnologiya usullari orqali), tarqatmalar va didaktik materiallarni tayyorlash malakalarga ega bo'ladi;

- hosil qilingan bilim va malakalardan o'qunfanini va bosqicha fanlarni o'rganishda, shuningdek, ijtimoiy hayotda bemal, o'z fikrini o'taga tashlashsha tabiiy ravishda intilish, ularni asoslash va dailil keltirish malakalari shakllanadi;

- qo'shimcha badiiy adabiyotlar o'qiydi;

- tasnifi va taqqoslash (ya'ni, pedagogik texnologiya usullari orqali), tarqatmalar va didaktik materiallarni tayyorlash malakalarga ega bo'ladi;

- hosil qilingan bilim va malakalardan o'qunfanini va bosqicha fanlarni o'rganishda, shuningdek, ijtimoiy hayotda bemal, o'z fikrini o'taga tashlashsha tabiiy ravishda intilish, ularni asoslash va dailil keltirish malakalari shakllanadi;

- mazkur videoinsho metodi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o'qituvchilarning kiritilgan bo'lib, hozirgi kunda markaz professor-o'qituvchilar tomonidan nazarli ma'lumotlar berib borilmoqda.

- Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, o'quchilarida mustaqil fikrash, mustaqil topshirqlarni bajara olib qibiliyatlari shakllantirsakkina, oldimizga qo'yilgan yuksak vazifani uddalay olgan bo'lamic;

</div

O'qituvchi minbari

## No'noq mutaxassis osmonidan tushmaydi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi ko'sratmalari ta'lrim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha dasturilamal vazifasini o'taydi.

Oliy ta'lim tizimida islohotlarni tezkor amalga oshirish va muayyan ijobiy natijalarga darhol erishish oson ish emas. Negaki, sohada paydo bo'lgan va mamlakatimizdagi ta'lim tizimi taraqqiyoti ga to'siq bo'layotgan qator muammolar uzoq yillarda davomida chuquq ildiz otgan. Ularning shakllanib, rivojlanib, takomillashib, shu holatga kelgunchicha yarim asrdan ko'proq vaqt o'tdi.

Ta'limdi muallimsiz tasavvur etib ham, boshlangan islohotlarni amalga oshirib ham bo'lmaydi. Tizim ko'ng'dagidek sifatlari ishlashti uchun eng quyi ta'lim muassasalaridan olyi ta'lim muassasalariga gacha ilmli, tajribali, yuksak madaniyatli, o'z sohasining fidoyisi bo'lgan jonkuyar, mehribon, g'amxo'r va kerak o'rinda qattingo'l bo'la oladigan, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni puxta egallagan pedagoglar zarur.

Keyingi o'ttiz-qirq yil ichida muallimni ilmdan, ta'lim dargohidan, shogirdlaridan uzoqlashtirdik, el orasida-gi obro'-e'tiborini to'kdik, boshqalar oldida ularni mute kimsalarga aylantirib qo'yidik. Oqibat chorasizlikdan qora qozonimi qaynatish, oilasini boqish, bola-chaqasining kam-u ko'stini to'ldirish ilinjida ta'lim tizimini tashlab ketganlari ko'p bo'ldi.

Mart-aprel oyidan boshlab chigit ekish, g'o'zani yagana qilish, qatqalog'ini yumshatish, o'tash, sug'orish, chekanka qilish, pilla terish; yoz bo'yish chorvaga xashak yig'ish, qishlovga tayyorgarlik ko'rish, ko'cha tozalash, katta yo'l yoqasidagi bino va daraxtlarni oqlash, ko'chat ekish, mahallani obod qilish, sentab — dekabr oylari paxta yig'im-terimiga jaib etilish, boshqa soha vakillari oldida xo'rstanish, kamsitish... Bu hol nafaqat maktab o'qituvchilar, balki akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, olyi ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilar hayoti va faoliyati uchun ham xos, umumiylot holat edi.

jalb etilish, boshqa soha vakillari oldida xo'rstanish, kamsitish... Bu hol nafaqat maktab o'qituvchilar, balki akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, olyi ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilar hayoti va faoliyati uchun ham xos, umumiylot holat edi. Xayriyatki, keyingi ikki-uch il ichida bu soha vakillari yelkasiga oftob tegadigan bo'ldi. Pedagogik faoliyatga salibiy ta'sir etayotgan to'siglar olib tashlandi, oylik maoshlar oshirilayti, ortiqcha qog'ozbozlik, majlisbozlik, hashar-u xo'jako'rsin ishlarga barham berilyapti. Ammo... muammolar kamaymayapti.

Xo'sh, ular nimalardan iborat?

Birinchidan, ta'lim tizimini boshqarishdagi muammolar. Bog'cha, maktab, litsey, kollejlarga tarbiyalanuvchi va ta'lim oluvchilarini qabul qilishdagi qing'ir-

liklar. Bunda shu muassasalarining nafsi hakalak otgan rahbarlari bilan bir qatorida, farzandlarini ta'lim muassasasiga olib kelayotgan ota-onalarning ham aybi bor. Ularning ko'pi yangi davr ruhi va talabini halni ham to'liq anglab, tushunib yetgani yo'q.

*Uchinchidan, ta'lim muassasalariga tarbiyachi, pedagoglarni ishga olishda-gi korrupsiya holatlari.* Ta'limda son, miqdor, albatta, sifatga aylanishi shart. Yo'qsa, barcha sa'y-harakatlar besamar ketadi. Ta'limdagi sifat va samaradorlik har tomonloma tarbiyachi va muallimga, uning pedagogik salohiyati, mahorati hamda tajribasiga bog'liq. Har bir mashg'ulot va darsning texnik vositalari, turli pedagogik usullar pedagogning jonli va ta'sirchan muloqoti, mahorati hamda tajribasi oldida ikkinchi darajali vosita hisoblanadi.

*To'rtinchidan, olylik maoshi oshirila-yotgan, turli qog'ozbozlik, majlisbozlik, hashar-u boshqa yumushlardan butkul ozod etilgan tarbiyachi va muallimlar oldida birgina vazifa — sifatlari mashg'ulot, dars o'tish, ko'zi charaqlagan shogird-larga mukammal bilim berish turibdi.* Xo'sh, ular bunga tayormi? Oyda-yilda bitta badiiy asar o'qimaydigan, o'z mu-

Mart-aprel oyidan boshlab chigit ekish, g'o'zani yagana qilish, qatqalog'ini yumshatish, o'tash, sug'orish, chekanka qilish, pilla terish; yoz bo'yish chorvaga xashak yig'ish, qishlovga tayyorgarlik ko'rish, ko'cha tozalash, katta yo'l yoqasidagi bino va daraxtlarni oqlash, ko'chat ekish, mahallani obod qilish, sentab — dekabr oylari paxta yig'im-terimiga jaib etilish, boshqa soha vakillari oldida xo'rstanish, kamsitish... Bu hol nafaqat maktab o'qituvchilar, balki akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, olyi ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilar hayoti va faoliyati uchun ham xos, umumiylot holat edi.

## Kitobni xushlamagan muallim

9-yoki 10-sinflarda o'qirdim. Ona tili va adabiyot fanlariga mehrim bo'lakcha edi. Maktabda faqat shu fanlar o'qitsaydi, deb o'yaldirim, o'zimcha. O'tiladigan mavzularni ta'tilda — oldindan o'zlashtirib qo'yardim. Sho'ir-yozuvchilarning hayoti va ijodi to'g'risida kitobda berilmagan ma'lumotlarni izlab topardim. Darslikka kirtilmagan ijodkorlarga yondaftarimdan joy ajratilardi. Xullas, adabiyot fani jon-u dilim edi.

Yangi o'quv yilida bizga adabiyot fanidan yangi muallima dars beradigan bo'ldi. Shahardan ko'chib kelgan ekan. Ko'rinishidan nihoyatda sipo, o'ziga haddan tashqari oro beradigan bu o'qituvchini unchalik xushlamay qoldim. O'quvchilarning bilimiga emas, kiyinishinga ko'proq e'tibor qaratadigan muallimaga yangi mavzuni jon kuydirib atyishing qizig'i yo'q edi. Men kabi odmi o'quvchilarning darsda faolligidan g'ashi kelar, ba'zan jahli chiqardi. Har safar adabiyot darsi boshlanganida, nafaqaga chiqqan sobiq ustozimizni esladim. Bahs-munoza, mushoiralar, bellashuvlar, bahribaytlarning g'oyat fayzli o'tgani ko'z o'ngimdan o'taverardi.

Choraklik tugashi arafasida shaharlik muallimning tug'ilgan kuni bo'ldi. Badaylat oila bolalari uni xursand qilish uchun qimmatbaho sovg'alar tuhfa qilishdi. Men esa yaqin dugonam bilan birga sovg'a qilgani Said Ahmadning "Usfq" romanini soitib oldik. Muallima sovg'amizni xushlamaygina oldi. O'shanda undan qattiq ranjidim. Eng yomon, u hatto choraklik bahomni

Oradan salkam 27 yil o'tdi. Mana, bugun onajonim orzu qilgandek muallim bo'ldim. Bolaligimdag'i o'sha voqealar meni ancha tarbiyaladi. O'quvchilarini birdek sevishga, bilimini adolatli baholashga o'rgatdi. Hatto bo'sh o'zlashtiruvchilarga ham yaqindan ko'maklashib, yuqoriqo baho qo'yishga harakat qilaman. Ota-onasi xorija ketgan yoki yetim qolgan o'quvchilarining boshini silab, o'ksik ko'nglini to'ldirishga urinaman. O'tgan o'quv yili oxirida beshinchi bor "qaldirg'och"larimni uchirma qildim. "Kelajakda kim bo'lasiz?" desam, ko'pi "Siz kabi o'qituvchi bo'lamiz", deya javob berishadi. O'shanda onajonimning gaplari bo'ldi.

ham pasaytirib qo'ysi. Bu menga yomon ta'sir qilgandi. Qattiq iztiroba tushdim. Alamidan daftarlarni yirib tashlagim keldi. Mehribon onajonim boshimni silab, "Shuncha mehnat qilib yozganlarde nima ayb, axir ularni to'plash uchun qancha harakat qilding. Qolaversa, ulardan doim foydalab kelyapsan. Qo'yaver, xafa bo'ima. Ustozing balki to'g'ri ish qilgandir. Taltayib, izlanishdan to'xtab qolmasin, degandir. Qizim, yana ham qunt bilan o'qi! Kelajakda shunday adolatli, xalqsevar, insonparvar muallima bo'lginki, barcha o'quvchilarining senga havas qilib, "Kelajakda o'qituvchi bo'lamon", deb orzilin.

Oradan salkam 27 yil o'tdi. Mana, bugun onajonim orzu qilgandek muallim bo'ldim. Bolaligimdag'i o'sha voqealar meni ancha tarbiyaladi. O'quvchilarini birdek sevishga, bilimini adolatli baholashga o'rgatdi. Hatto bo'sh o'zlashtiruvchilarga ham yaqindan ko'maklashib, yuqoriqo baho qo'yishga harakat qilaman. Ota-onasi xorija ketgan yoki yetim qolgan o'quvchilarining boshini silab, o'ksik ko'nglini to'ldirishga urinaman. O'tgan o'quv yili oxirida beshinchi bor "qaldirg'och"larimni uchirma qildim. "Kelajakda kim bo'lasiz?" desam, ko'pi "Siz kabi o'qituvchi bo'lamiz", deya javob berishadi. O'shanda onajonimning gaplari bo'ldi.

O'quvchilarining beg'ubor, samimiy niyatlaridan ko'nglim yashnaydi. Muallim ekanimdan faxrlanib ketaman.

Dilnoza NARZULLAYEVA

E.QOBILOV,  
SamDU professori  
M.BOLTAYEV,  
dotsent

# “Mehrobdan chayon” — rangdor roman

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asari ham adibning dastlabki dilbar romani kabi o’zining doimiy muxlislariga ega adabiy durdonadir. Romanning shakl va mazmuni, obrazlar tizimi va tasvir jozibasi, badiiy nutq — asar tili va uslubi, tasviriy vositalari, umuman, adabiy-estetik, poetik borlig’i har vaqt adabiyotshunoslar e’tiborini o’ziga jalg etib keladi. Har bir davr undan o’zicha ma’no axtaradi — topadi. Har qaysi tadqiqotchi undan o’zicha fazilat izlaydi — topadi. Yoki ashaddiy bir munaqqid tanqidni ko’zlaydi — u ham niyatiga yetadi.

“Mehrobdan chayon” — rangdor roman. Uning mazmun-mohiyatida keng qamrovli va turlicha talqinlar uchun manba bo’lishga loyiq adabiy mavzular juda ko’p. Roman hozirga qadar ko’p tushuntirildi, biroq hech bir adabiyotchi bu asar borasida eng to’g’ri va eng oxirgi tahillarini taqdirm etganini da’vo qila olmasa kerak. Da’vogar bilan fikrlashish va bahslashish uchun mavzu to piladi. Zotan, “Mehrobdan chayon”ning o’zbek romanchiligi maydonida o’ziga xos martabani egallab kelishining ham, nisbatan umri boqiligining ham sababi aynan shunda. O’tgan davrlar davomida romanning turlicha tahlil va talqinlari maydonga keldi. Bunday keyin ham ayni fazilati saqlanib qoladi.

O’zbek adabiyotshunosligida “Mehrobdan chayon”ga munosabat Oybekning “Abdulla Qodiriyning ijodiy yo’li” asari bilan boshlangani ta’kidlanadi. Ammo romanning ilk talqini uning nashr yili bilan sanadosh. 1929-yili “Sharq haqiqati” gazetasida Miyon Buzrukning qodiriy shunoslari ko’p ham ahamiyat bermagan “Mehrobdan chayon” (Mavzui, sinfy tusi va tuzilishi jihatidan tekshirilmishdur) maqolasi bosiladi. 30-yillarda adabiy tanqidiga xos qator xususiyatlari M.Buzrukning mazkuri “go’yo, yeldek kelgan-u, seldek ketgan” (H.Qodiriy ta’biri) ana shu maqolasida ham o’z ifodasini topgan edi.


Tarix — ibrat oynasi. Ayniqsa, millat va mamlakatning taqdirdida chuqur iz qoldirgan va tuganchiga yetgan XX asr oynasi chang-g’uborlardan tozalangan sari inson va jamiyat hayoti yuzasidan achchiq hamda haqiqiy xulosalar berdi. 30-yillarda adabiy tanqidagi badiiy asar qanday bo’lishi kerakligini ko’rsatishga urinib kuchandi. Xuddi o’sha davr va undan keyingi jarayonlar adabiy tanqidning o’zi qanday bo’imasligini ko’rsatdi. Inchunin, badiiy asarsi ham kim o’zicha anglaydi, har kim o’z dunyoqarashiga moslab tushunadi va tushuntiradi; haqiqiy san’at namunasini muayyan yasama luzumli qoliplarga solib, yakranglikka mahkum etish san’at asarini siyqalashtradi. Yozuvchi ilgari surgan g’oyaga, badiiy talqiniga muvoqfi bo’lgan ilmiy talqinning yuzaga kelishi badiiy-g’oyaviy birligi va ilmiylik, yozuvchi va talqinchisi orasidagi muvozanatni ta’min etadi. Yozuvchining estetik idealini ham, asar mohiyatidagi nafosatni ham aniq-tiniq tushungan holda, siyosatning moneliklari tufayli ularni tushuntirishning imkonini bo’lmasa, albatta, g’ayritabiiy talqinlar paydo bo’ladi.

O’zbek adabiyotshunosligida birinchi roman qachon va qaysi adib tomonidan

bitilgani masalasida tortishuvlar bo’ldi. Bu gap o’zbek adabiyotidagi chinakam birinchi va ikkinchi romanlar yozilgan pallada ham dolzarb edi Shu bois M.Buzruk maqolasida o’zbek adabiyotida romanning paydo bo’lishi va tarkibi xususida fikrlar yozdi: “Janr talablariga to’la javob beradigan birinchi “original” roman “O’tkan kunlar”dir. To’g’ri, Hamza Hakimzoda “milliy roman” deya kichik hajmli asar yozgan, biroq uni “bu kungi romanchiliq sharoitida roman demak to’g’ri bo’lmaydi. “Mehrobdan chayon” yolg’uz Jo’lqunboyning ikkinchi asari emas, bular o’zbek yangi adabiyoti uchun ham ikkinchi roman edi”.

Ta’kidlash kerakki, Abdulla Qodiriyning har ikki romani o’zbek adabiyoti xazinasidagi tengsiz gavharlar bo’lsa da, keyingi roman yuzaga kelgan paytdayoq ular o’zaro qiyoslandi. Hozirga qadar davom etib kelayotgan bu qiyosiy tahlillar miqyosi o’ziga yarasha tarixga ega. Bu tarixning ilk mulohazasi ikkinchi romanning birinchi munaqqidi M.Buzruk qalamiga mansub: “Yangi roman va hikoyalarga mushtoq-changoq bo’lg’on davrimizda “O’tkan kunlar”i bilan tanilan Julqunboyning “Mehrobdan chayon”i juda ham shoshilib kutilar edi va juda ahamiyat bilan qarshulang-oni-da ko’rildi. Bu hol bir daraja tabiiy ham edi. Chunki birinchi asarida ancha muvaffaqiyat ko’rsatgan Julqunboydan bir necha yil so’ng chiqadigan asarining yana ham komil va go’zal bo’lishi kutilar edi. Lokin, “Mehrobdan chayon” u istak-orzularga javob bera olmadi. Uning “O’tkan kunlar”ga nisbatan ham ancha kuchsiz holda chiqqanini bosdayoq ayta olamiz...” Ijod ahlining qaysi asari — oldin yozilganimi yoki keyin — uzoq umr ko’rishini, “komil va go’zal bo’lishi”ni bashorat qilish qiyin ish. Tanqidchi tomonidan atylting yuqoridaq gaplarga zid o’laroq “Mehrobdan chayon” Abdul-la Qodiriyning birinchi romanini bilan hal shu kunga qadar yonna-yon yashab keledi.

Yozuvchi voqelikni, ijtimoiy hayot hodisalarini badiiy talqin etar ekan, o’z g’oyaviy maqsadini anglash, asar markazida turgan qahramonlari surat va siyratini ko’rsatish uchun turli adabiy usullarni ishga soladi. Ba’zida bosh qahramonni so’zlatib, o’zini ko’rsatadi, ba’zan esa uni butun vujudidan kirlik yog’lib turgan kimsalarga yoki ochiqko’ngil, soddadil odamlarga yo’liqtiradi. To’qashuvlar, mubahasalar, munozaralar, samimiy dilgir subbatlar va yoki lirik kechimnalar orqali voqealar rivoji yechimga qarab siljiyveradi, qahramonlar dunyosi oydinlashaveradi.



Shu ma’noda Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon”da Anvarning ma’naviy kamolotini ko’rsatishda Solih maxdum, Abdurahmon domla, Safar bo’zchi kabi obrazlardan unumli foydalandi.

Safar bo’zchi — romandagi eng samimiy, eng beg’ubor obraz. Uning ma’naviyati bo’rttirib, tabiiy ravishda qabartib ko’rsatilgan. Olimlar Safar bo’zchi va sinfiylik masalasiga jiddiy qaradilar. Ayrim munaqqidlar romandagi to’qashuvlardan sinfy ma’no izlab, topa bilmadi va kamchilik sifatida tanqid qildilar. Bir necha o’n yillarda so’ng boshqa ba’zi olimlar Safar bo’zchi obrazining sinfy mohiyatini “kashf” etdilar.

Abdulla Qodiriyning o’zi Safar bo’zchi zimmasiga ortiqcha yuk yuklash g’ayritabiiylikka olib kelishini his etadi. Shuning uchun adib haligi nasihatlarni eshitib eshitmaganga, ko’rib ko’rmagan ga’oldi; badiiy-estetik qonuniyatlarni, obraz jozibasini “sinfy his”ga qurban etishni istamadi, romanni mafkuraviy talab asosida yanada yalang’och-quruq ho latga keltirishni xohlamadi.

Julqunboy imkonи doirasida o’z realistik prinsiplariga soidiq qoldi, darr talabini ortiqcha bo’rttirmadi. Qalbiga qulog tutdi; iyomonida mahkam turdi. Romaning soxta bo’lishishni istamadi. Hayot haqiqatining real badiiy talqinini taqdirm etdi. Kitobning qadrini o’yladi. Adib romanga munaqqidlar talabida bo’lgan “sinfy tus”ni so’zboshi vositasida berib qo’ya qoldi...

Davrular o’tgan sari ilmiy talqinlar tarixiy cheksizlik qara’iga singib boradi. Ammo ulkan iste’dod egalari yozgan go’zal romanlar har doim muxlislarni o’ziga jalg etganicha abadiyat maydonida turadi.

Rus adabiyotshunosi M.M.Baxtin muallif va qahramon masalalarini tadqiq eta turib, bu munosabat uch xil bo’lishini aytgan edi. Birinchi holatda, yozuvchi o’z qahramoni ustidan hukmronlik qila bilmaydi, uni boshqara olmay qoladi; qahramon o’z tabiatini mantig’iga ko’ra yechimga boradi. Ikkinchi holatda, muallif qahramonlarni o’z g’oyasiga to’la bo’ysundirib olgan bo’ladi, ular ko’proq yozuvchi istagiga binoan harakat qiladilar. Uchinchi holatda esa, qahramonning o’zi muallifga aylanadi, go’yo sahnada rol o’ynayotgandek o’z shaxsiy hayoti xususida o’zi estetik mulohaza yuritadi.

Abdulla Qodiriyning ijodiy merosida

har uchala tipdag‘i qahramonlarni uchrashtish mumkin, albatta. Xususan, “Mehrobdan chayon” romanida Solih maxdumga o’xshash o’z tabiatini mantig’iga ko’ra harakatda bo’lgan qahramonlar ham, Anvar va Ra’no singari nisbatan yozuvchi g’oyasi izmiga bo’ysungan qahramonlar ham bor. Va badiiy adabiyotda xilma-xil va rang-barang qahramonlarning bo’lishi tabiiy hamdir. Faqat o’tkinchi siyosiy talab qolipidagi mafkuraviy metod va asoslar bilan ish ko’radigan olimlarga qahramonlar yelkasiga bir xil rang va bir xil o’lchamdag‘i liboslarini yopib ko’radi. Mabodo qahramon libosga nomuvofiq kelsa, uni tanqid qilishga tushib ketadilar. Aslida, qahramonlar dardini anglash, yuzidagi rangni sezish, jussasini to’g’ri chamalash va eng muhimmi, qalbiga qulqoq tutish lozim.

Abdulla Qodiriy ma’naviyatidan sizib chiqqan bu totli chashma bir necha o’n yillardirki tashna qalblarga orom bag’ishlab, horg’in ruhlarga yengillik, g’amgin ko’ngillarga surur va mahzun dillarga zavq ularshadi. Romanni o’qiganda adib mehr bergan Anvar, Ra’no, Nigoroyim va Safar bo’zchilar, yozuvchi “qahri”ga uchragan abdurahmonlar, taraddudlari og’ushida aks etgan solih maxdumlar, niyoyat, mo’tadil tasvirlari xudoyorxonalar siyomasi takror va takror tasavvurda paydo bo’ladi.

Anvar bilan Ra’noning muhabbat tarixi, she’rxonlik bahsi, xususan, ular o’rtasida bo’lib o’tgan quyidagi aytishuv sahnasi har qanday vaziyatida ham yosh kitobxonlar qalbini o’ziga maftun etadi:

— Agar Farhodning Shirin, bo’lsa Majnunlarning Laylosi, Nasib o’lmish menga gulshan aro gullarning “Ra’no”si.

— Agar or etsa Layli haqlidir Qaysning janunidin, Ne baxt, Ra’no xaridoring talab ahlining “Mirzo”si.

— Hamisha xayfa ko’nglim bu muhabbat intihosidin, Meni ham etmasa majnun debon Ra’noning savdosи.

— Muhabbat jomidin no’sh aylagan ahli zako bo’lmish, Fununi tibda majmundir kishining kuysa safrosi.

Qolaversa, adib tomonidan insho qilingan ushbu baytlar negizida ham romanning umumpafosi, voqealar rivojiga ishora qiladigan nuqtalarini, deylik, Anvarning “muhabbat intihosidin” xayfa bo’lgan ko’ngil holatlari xususida fikr yuritish ham maroqlidir.

Romandagi fasih qahramonlarning odobiysi, mumtoz adabiyot borasidagi ma’rifati, o’z maqsadlari yo’lidagi jasorati, zulmga qarshi so’z aytishdagi shirjoati — shu kabi qator go’zal xislatlari loqaytdlik ildiziga bolta uradi...

Kullas, o’zbek adabiyotining muh-tasham ma’naviy xazinasidan o’rin olgan “Mehrobdan chayon” kabi romanlarning real matn asosida ilmiy-nazariy talqin qilish doimiy zaruriyat sanaladi. Vaqt o’tgan sari binyoqlama qarashlar barham topib, xolis tushunish va tushuntirishlar roman mohiyatiga mos tiniqlik kasb etishi tabiyy holdir.

Bahodir KARIM,  
filologiya fanlari doktori, professor



## Himoyaning yangi usuli

Xalqaro olimlar guruhi odam immun tanqisligi virusi (OIV) dan himoyalanishning yangi usulini aniqlashga muvaffaq bo'ldi, deb xabar qildi "Korrespondent.net".

Ish avvalida tadqiqotchilar parazit sistosoma lichinkalari faoliyatini o'rgandi. So'ng ularning insondagi T-limfotsitlarga OIV virusi yuqishi ni to'sib qo'yishini aniqladi. Olimlar hatto parazitlar tuxumidan dari tayyorlashga urinib ko'rdi va buning uddasidan chiqdi.

Dori vositasi sinovdan o'tkazilgach, natijalar olimlar kutganidek bo'lib chiqdi. Ular mazruk dori yordamida odamning dendrit hujayralari virusiga qarshi 80 foizdan ziyodroq bardoshli bo'lishini ko'rsatdi.

Eslatib o'tamiz, sal avvalroq britaniyalik olimlar OIV rivojlanishini to'xtatuvchi oddiy va samarali usulni yaratgan edi.



Gap shundaki, 1951-yili Avstraliya janubidagi Viktoriya provinsiyasi hududidan og'irligi 220 gramm bo'lgan meteorit topilgan edi. Mahalliy muzeylarning birida saqlanayotgan ushbu noyob topilmaning juda kichik bo'lagi 2018-yili Kaliforniya universiteti mineraloglariiga o'rGANISH uchun berildi.

Uzoq tekshiruvlardan so'ng olimlar meteorit tarkibidan avval fanga ma'lum bo'lgan mineralni aniqladi va unga Havayi universiteti professori, kosmik

## Reklama • e'lon

*Turdiyeva Shoxida Tolkunovnaning 14.00.09 — Pediatriya ixtisosligi bo'yicha "Birlamchi sog'iqlini saqlash tizimida maktab o'quvchilari orasida gastroudenal soha surunkali kasalliklari profilaktikasi va reabilitatsiyasini muqoballashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 4-oktabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy. Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

*Paluashova Gauharay Qalbayevnaning 06.01.02 — Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha "Amudaryoning quyida g'o'zani egatlav sug'orish texnologiyasini takomillashtirish yo'li bilan tuproqning tuz rejimini boshqarish usullari" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.10.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 27-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel/faks: (71) 237-46-68, 237-38-79; e-mail: admin@tiaame.uz

*Apakxujayeva Tursunoy Ubaydullayevnaning 05.09.07 — Gidravlikva muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Quyilma suv omchorlarining soy-dali hajmining o'zgarishini bashoratlash (Talimarjon suv ombori misolida)" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.10.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 27-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel/faks: (71) 237-46-68, 237-38-79; e-mail: admin@tiaame.uz

*Nurgaliyev Ilnar Nakipovichning 01.04.06 — Polimerlar fizikasi ixtisosligi bo'yicha "Xitozan va uning hosilalarining "tuzilishi-xossa" sini kompyuter modellashtirish" mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'ZR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.K/FM/T.36.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 4-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-B" uy. Tel/faks: (71) 241-85-94, 241-26-60; e-mail: polymer@academy.uz

*Ergashev Bobur Avaz o'g'lining 01.04.10 — Yarimo'tkazichlar fizikasi ixtisosligi bo'yicha "Turli tarkibili CdTe yupqa qatlamida xususiy nuqsonlarning holati va tabiatini" mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'ZR FA Fizika-teknika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi 30.05.2018.FM/T.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 23-sentabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100084, Toshkent shahri, Chingiz Aytmatov ko'chasi, 2-B" uy. Tel/faks: (71) 235-42-91; e-mail: ftikans@uzsci.net

## Yangi mineral

Chi Ma va Alan Rubin boshchiligidagi geologlar guruhi allaqachon yo'q bo'lib ketgan sayyora qa'ridan kelib qolgan uglerodli mineralni aniqladi. Bu haqidagi qiziqarli maqola "American Mineralogist" jurnalida chop etildi.

Meteoritlarni tadqiq etish bo'yicha yetakchi mutaxassis Edvard Skott sharafiga "edskottit" deb nom berildi.

Olimlarning fikricha, ushbu mineral temir va uglerod atomlarining o'zarlo ta'sirlashuvini natijasida meteoritning o'ta sekinlik bilan sovish jarayonida hosil bo'lgan. Aslida bunga o'xshash birikmalar po'lat eritish jarayonida oz midorda paydo bo'ladi va bu uni to'laqonli mineral deb atashga yetarli asos emas. Ammo mazkur namuna tabiiy sharoitda paydo bo'lgani bois uni bemalol minerallar qatoriga qo'shish mumkin.

Olimlar edskottit mineralining Quyosh tizimi endi shakllana boshlagan uzoq o'tmishda, hali to'laqonli

sayyoraga aylanmagan osmon jismida hosil bo'lganini aytmoqda. Ammo mazkur osmon jismi boshqa osmon jismi bilan to'qnashuv natijasida parchalanib, kosmos bo'ylab meteoritlar ko'rinishida sochilib ketganidan so'ng ularning aksar qismini boshqa sayyoralar, jumladan, yer o'ziga tortib olgan. Ayrim qismi esa Quyoshda yonib, kul bo'lgan. Shunga qaramay, uning ko'plab bo'laklari asteroidlar belbog'ida saqlanib qolgan. Tadqiqotchilar qismarning ayrimlari hozirga qadar yerga meteorit sifatida tushishda davom etayotgani hisobga olinsa, Avstraliyadagi muzeyda saqlanayotgan bo'lak uning bir qismi bo'lishi ehtimoli yuqori ekanini ma'lum qildi.

Iroda TOSHMATOVА tayyorladi.

*Sirojiddinova Xiromon Nuriddinovnaning 14.00.09 — Pediatriya ixtisosligi bo'yicha "Anamneziyada homila ichi infeksiyalanishiga chalangan tez-tez kasallanuvchi bolalar respirator kasalliklarining immunkorreksiyali terapiysi" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 4-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy. Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

*Qodirov Valijon Abdurahmonovichning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti) ixtisosligi bo'yicha "Umumta'lim maktablarida muntoz adabiyot namunalarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD. 28.09.2018.Ped.76.02 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2019-yil 24-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy. Tel/faks: (69) 227-01-44; e-mail: info@namdu.uz

*Namozov Ixtiyor Choriyevichning 06.01.07 — Mevacilik va uzumchilik ixtisosligi bo'yicha "Intensiv tipdagisi olma bog'larini parvarishlash texnologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 26-sentabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60; e-mail: tuag\_info@edu.uz

*Xurramov Ulug'bek Xolmamatovichning 06.01.06 — Sabzavotchilik ixtisosligi bo'yicha "Takroriy ekish muddatlarida pekin karamining serhosil navlarini tanlash va yesitshtirish texnologiyasining asosiy elementlarini ishlab chiqish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 26-sentabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60; e-mail: tuag\_info@edu.uz

*Tolibov Behzod Ibrahim o'g'lining 05.02.01 — Mashinasozlikda material-shunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlav berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi (materialshunoslik va metallurgiya yo'naliishlari) ixtisosligi bo'yicha "Qimmatbaho komponentlar chiqishini oshirish va jarayoni intensifikasiyalash uchun muallaq holatda sulfidli materiallarni kuydirish pechida qayta ishlashning samarali texnologiyasini yaratish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Islam Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "Fan va tarraqqiyot" DUK huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.K/T.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 25-sentabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Mirzo G'olib ko'chasi, 7 "A"-uy. Tel/faks: (71) 246-39-28, 227-12-73; e-mail: gupft@inbox.uz

1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni

# Beshinchı məktəb — dunyoning eng keng maskani

Bolalik yodi umrning keyingi bosqichlaridagi taassurotlardan zalvorliroq bo'ladi. Olis bolalikda tabiat o'zgacha yam-yashil, mevalat shirinroq, quyosh hoziridan yorqinroq nur sochgandek tuyuladi. Bolalikda voqealar inson uchun ilk bor yuz beradi. Ular butun umrga xotirada muhrlanib qoladi.

Tasavvurumizda dunyodagi eng bilimdon inson boshlang'ich sinf muallimamiz edi. Maktabimiz esa dunyodek keng dargoh bo'lgan. Shu bois, oradan yillar o'tgach, məktəb, sinf, o'qituvchi, parta kabi so'zlarning oldiga "sevimli" yoki "jonajon" so'zlarini qo'shib eslaymiz: jonajon məktəbim, sevimli sinfim, jonajon partam, sevimli o'qituvchim!

Birinchi sinfga qadam qo'yish, birinchi muallim, məktəbni bitirish hayajonlari, birinchi muhabbat — bularning bari xotiraning eng ardoqlı mulki sanaladi.

Məktəbaga borgan ilk kumin xuddi kechagidek esimda. Yop-yorug', go'zal bir kun edi. Meni məktəbaga olib borayotib, otam shunday degandilar:

Agar yaxshi o'qisang, birinchi sinfning yarmidayoq ikkinchi sinfga o'tkazishadi. Yiliga ikkitanan sinf o'qib, o'n yillik məktəb dasturini besh-olti yilda, muddatidan avval tamomlashing mumkin...

Otamning bu so'zları ongimda muhrlanib qoldi. Yiliga ikki sinfni bitirmadimku-ya, lekin bu o'git meni o'qishga ruhlantirib, məktəbaga, kitobga mehr uyg'otgani aniq. Yo'l-yo'lakay məktəb yonidagi suratxonada hujjat uchun rasmga tushdim (ajab, hozir shu rasmimni ikkinchi o'g'lim birovg'a ko'rsatib: "bu — men", desayam bo'laveradi!).

Qarshi shahridagi 5-məktəb uyimizga yaxin edi. Lekin "nulevoy" sinf tugul, hatto sentabrdan bir-ikki kun avval bo'ladigan tanishuv yig'lnariga ham bormaganman. Nega? O'shanda "ishim ko'p bo'lgan", yoki o'z iqtidorimga qattiq ishonganman, desam, bu shunchaki hazil gap bo'lar. Har holda, otam bilan məktəbaga borganimizda, ilk qo'ng'iroq chalingan, dars boshlanib ketgan ekan. Menga oxirgi partadan joy tegdi.

Beg'ubor məktəb davri! Bir donishmandning "Odam bo'lsasi olovdag'i qo'rg'oshin misoli, undan istalgan shaklini yasash mumkin", degan gapi ko'proq shu davrga mos tushadi. Maqsadga muvofiq ko'rkm "shakl"ni yasash esa o'qituvchining ist'e'dodi va mahoratiga

bog'liq. Birinchi muallimamiz Toshoy opa Boltayeva ana shunday oqila ayol edi. Shu muallimma qo'lida savodimiz chiqqani nafaqat mening, balki barcha sindofsholar uchun hayotdagi ilk yutuqlarimizdan biri bo'lgani shubhasiz.

O'quchilarining puxta bilim egallab, hayotda o'z o'mini topishida, ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchisining xizmati katta. Shu o'rinda ustoz mahoratiga oid ayrim jihatlarini esga olish o'rini.

Avvalo, boshlang'ich sinfdə xat-savod o'rganishimiz oson, yengil va silliq kechgani hanuz esimda. Vaholanki, bola uchun bu davr ruhiy-jismoniy jihatdan ancha murakkab sanaladi. O'quchilar keling ilk kunlari sinf, jamoa tarib-qoidalarini, dars sharoiti, o'qish mas'uliyatini qabul qilishga qiynaladi. Shuning uchun ham o'quv yilining birinchi yarim yilligida bolalarni məktəb sharoiti, sinf jamoasiga moslashtirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi.

Bizga harf tanitgan muallimamizning yozuvu kitobdag'i namunaviy husnixatdan deyarli farq qilmasdi. Ajabki, sinfdagi qirq o'quchining yozuvini ham xushxat, bir-biriga ancha-muncha o'xshash edi.

Sinfoshlarining o'zlashtirish darajasi o'zaro yaqin, qoloq o'quchilar esa deyarli bo'lma-gan. Muallimamiz a'lochi o'quchilarini ko'p haddan oshirib maqtamas, past baho olganlarning ham ko'nglini cho'ktirmasdi. Lekin me'yorida aytigel maqtovlari shunchalar ohanrabo ediki, muallimamizning qadrdon ovozi hanuz qulog'im ostida jaranglab turganedek.

Oradan yillar o'tgach, pedagogika ilmini o'rganan ekanman, ko'z o'ngimda olis o'quchilik davrim qayta jonlangandek bo'ldi. Negaki, kitobda yozilgan ushu qoidalari ijrosini bolalikda o'zim bevosita ko'rganman: "O'qituvchining o'quchilar bilan do'stona munosabat o'matishi, bolaning fikrini ochiq bayon qilib, erkin mulohaza yuritishi tarbiyada muhim jihat hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limdanoq bunday ijobji mu-

hitning yaratilishi barkamol avlodni tarbiyalashning dastlabki shartlaridan biridir".

Boshlang'ich sinf muallimamiz o'z mashg'ulotlarida og'zaki suhbatlar, rasmiga qarab so'zlab berish, she'r yoddash, hikoya qilish, savollarga og'zaki javob berish kabi usullardan mahorat bilan foydalangani hanuz yodimda. Bu usullar o'quchchi zehni va nutqini o'stirishda katta ahamiyatiga ega. Diktant yozish mashg'uloti biz uchun kichik bayramdek quvchonchli bo'lardi. Muallimamiz har bir so'zni o'z sehti va zalvori bilan talaffuz qilar, qo'fidagi "Diktantlar to'plami", nazarmizda, xuddi sehri kitozbek tuyulardi. Boshlang'ich sinfdagi ana shunday yoqimli saboqlar kaminada so'zga mehr uyg'otgan bo'lsa kerak.

Sinfimizda ma'naviy-axloqiy muhit yaxshi edi. Bir ota-onaning farzandlari kabi ahil-inoq edik. Bu ham shubhasiz, o'qituvchining mahoratidari darak. Negaki, xotirada muallimamizning "bebosh" o'quchilarini koyib, jig'ibiyron bo'lgan holati emas, balki bir-biridan qiziqarli darslari muhrlanib qolgan.

Pedagogning kasbiy malakasi, qobiliyat, mahorati, madaniyat va ma'naviyati — uning qiyofasini belgilaydi. O'qituvchining yutuq va nuqsonlarini hammadan avval o'quchilar anglab olishadi. Ba'zan pedagogika institutining yuqori kurs talabalari məktəbimizga amaliyot o'tagani keleshardi. Bizning intizomli sinfimizda dars o'tish ularga yoqishi sezilib turardi, o'z navbatida biz — o'quchilar, amaliyotchilarining dars usulularini o'zimizcha muhokama ham qilardik.

Umumalq bayramlari arafasida rangli qog'ozlardan bayroqchalar yasab, ipga tizib keldarik. Ular məktəbimiz atrofidiagi ko'chalar chetida, daraxt-larga ilib chiqilardi. Ko'chadan o'tganda o'zimiz yasagan bayroqchalarini ko'rib, juda faxrlanardik. Ustozlarimiz shu tariqa bizda Vatan, yurt obodligiga hissa qo'shish va bundan faxrani hissini tarbiyalashgan.

Atrof yashillikka burkan-gan bahor pallasida muallima boshchiligidagi sinfimiz bilan



tabiat qo'yniga ekskursiyaga chiqiardik. Yozgi ta'il chog'i turli o'simlik va daraxtlarning barglarini daftarga yopishirib, gerbariyalar yasaganamiz. Ona tabiatga mehr qo'yish, uni e'zozlash bizlarga ana shunday o'rgatilgan.

Məktəbimizga oid xotiralarim ichida sport va vatanparvarlik mavzusini alohida o'r'in tutadi. O'quchilarida oriyat, g'urur va jangovarlik tuyg'ulari azaldan baland. Yuqori sinf o'quchilar o'sha paytda (1978—80-yillarda) endigina urf bo'layotgan karate bilan shug'ullanishardi. Ulariga juda havas qilardik. Məktəbimizning qo'l to'pi jamoasi shahar va viloyat miqyosida peshqadamlonki qo'ldan bermasdi. Buning siri nimada? Ancha yillardan so'ng bu savolga tarixiy va mantiqiy javob topdim.

Istiqlol sharofati ila asl tariximizi o'qib-o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. Shu asonda, qarshilik o'g'lolnarga xos g'urur va sportga chanqoqlik xususiyatlari yana esga oldim. Tarixiy manbalarga ko'ra, Qarshi (Nasaf, Naxshab) Sohibqiron Amir Temur tarjimayı holida alohida o'r'in tutadi. Shu shaharda ul zotning madrasa tahsilini olgani haqida ma'lumotlar bor.

Qarshi — Sohibqiron jasoratining boqiyi temsildir. Sohibqiron qo'shinida qarshilik sar-karda va yovqur navkarlar ham ko'pchilik bo'lgan. Qarshida Sohibqiron va temuriyodalik ruhi doimo barqaror. Binobarin, yuksak oriyat va g'urur, jangovarlik tuyg'ulari qarshiliklilar uchun bobomeros fazilatlardan sanaladi!

Ko'hna Nasaf — Qarshida Sohibqiron ja-shodligi, yig'ilsa butun, Do'stlar diydoridan bo'lomas ustun!

Numerologiya faniga ko'ra, raqamlarda o'ziga xos sir-sinoat mujassam bo'ladi. Shu nuqtayi nazaridan qaraganda, beshinchı məktəb — o'z nomiga munosib ulug' ostona. Bu məktəbni a'lo baholarga tamomlagan insonlarning kelajakdag'i ishlari ham albatta "besh" bo'lishi shubhasiz!

## Iqtidorlilar to'garakda toblanadi

Yangi o'quv yilini maktabimiz pedagogik jamaosi o'zgacha kayfiyatda kutib oldi. O'tgan o'quv yilida 11-sinfni bitirgan 34 nafar o'quvchining 12 nafari oly ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilingani, 4 nafari davlat granti asosida o'qiyotganidan barchamiz faxrlandik.

Bunda O'rroloy Mardiyeva, Ne'matillo To'rayev, Alimardon Nishonov, Mirko-mil Toshpo'latovdek jonkuyar va tajribali o'qituvchilarning hissasi katta. Hozir ularning sa'y-harakati bilan ko'plab to'garaklar tashkil etilgan. O'quvchilarimiz ana shu to'garaklarda darsdan keyin o'z bilimlarini oshirayapti.

Ayni paytda 40 nafar pedagog faoliyat yuritayotgan hamda 330 nafar o'quvchi ta'lif-tarbiya olayotgan maktabimizda o'quv jarayoni zamonaviy usullarda olib borilmoga. Maktab hovlisini obodonlashirishga ham muntazam e'tibor qaratiladi. Yaqinda hovli-da artezian qudug'i barpo qilingani bog'ning yanada ko'rakashishiga imkon yaratdi. Bundan tashqari, besh tashhabus bo'yicha ham qator ishlar qilinmoqda. Jumladan, maktabimiz tuman bo'yicha "Shaxmat maktabi" deb e'lon qilingan. Shaxmatga havas qo'yan bolaning dunyoqarashi, fikrashi har tomonlama o'zgaradi. Maktabimiz o'quvchilarining aksari shaxmatga mehr qo'yan. Ular turli musobaqalarda yaxshi natija ko'rsatishmoqda.

Bahrom BOBONAZAROV,

Qo'shrabot tumanidagi 35-maktab direktori

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Neft va gaz hamda Energetika fakultetlari talabalarini qayta ta'mirlanib, foydalanishga topshirilgan 2-talabalar turarjoyi o'z bag'riga oldi.

## "Uydagidan-da qulay xonam bor!.."

— Bu turarjoy nafaqat talabalar uchun boshpana vazifasini o'taydi, balki kitob o'qishlari, ma'naviy hordiq chiqarishlari, sport bilan shug'ullanishlari va yana salomatliklarda muammo bo'lsa, hamshira xizmatidan foydalanishlari mumkin bo'lgan ajoyib maskanga aylandi, — dedi texnika fanlari doktori, professor Sattor Aliqulov.

Qarshi shahridagi Xonobod shohko'chasida joylashgan ushbu 3 qavatlal talabalar turarjoyi 1974-yili qurilgan bo'lib, dastavval 108 nafar talabani bag'riga olgan. Investitsiya dasturi doirasida kapital ta'mrlanganidan so'ng maskan yana 22 o'ringa kengaytildi. Bugungi kunda 130 nafar talaba o'mni mavjud. Yangilangan 2-talabalar turarjoyida institut axborot-resurs markazining 2000 dan ortiq kitob fondiga ega filiali, internet bilan ta'minlangan axborot texnologiyalari markazi va voleybol, stol tennis, og'ir va yengil atletika bilan shug'ullanishlari uchun barcha zarur sharoitlarga ega sport maydoni va anjomlari shay. Loyiha qiymati 4 milliard 700,2 million so'mdan iborat.

Nogiron talabalar uchun barcha qulayliklarga ega maxsus xonalar hozirlangan.

— Ikki yil davomida shu talabalar turarjoyida yashaganman, — deydi Neft va gaz fakulteti talabasi Dilbek Rahmonov. — 2-guruh nogironiman, ilgari sharoit yo'qligi uchun ko'p qiyalardim. Hozir meniga yuvinish va umumiyy foydalanish xonalari ichida bo'lgan, ko'pgina qulayliklarga ega xona berildi.

Zebuniso NAZIROVA,  
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti  
matbuot kotibi

## Qanliko'llik yoshlar quvonchi

Qoraqalpog'istonning go'zal qiyofa kasb etayotgan Qanliko'l tumanida yana bir ko'rkam bino qad rostladi. "Yoshlar markazi" tumanda yashovchi 25 mingdan ortiq yoshlar uchun ajoyib sovg'a bo'ldi. Bu yerda axborot-resurs markazi, ingliz, rus tillari, matematika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha to'garaklar tashkil etilgan.

— "Yoshlar markazi" iqtidorli, izlanuvchan yoshlarning sevimi li maskaniga aylanishiga shubba yo'q, — deydi 15-maktabning 9-sinf o'quvchisi Sahibjamal O'rboyeva. — Tuman markazidan uzoqroqda yashasam ham, "Barkamol avlod"

markaziga qatnab to'qish sirlarini o'rganayotgan edim. Endi "Yoshlar markazi"da tashkil etilgan chet tillarni o'rgatuvchi to'garakka a'zo bo'lmochiman.

Nesibile MAMBETIRZAYEVA,  
"Ma'rifat" muxbirini

## Kamolotga eltadi

Ma'naviyatni boyitishda kitobning o'rni alohida. Shu bois yoshlarda kitob mutolaasiga qiziqishni oshirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, bu boradagi ko'nikmalarni kamol toptirish uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoga.

Oltinko'l tumanidagi 4-maktabda o'tkazilgan "Kitob kamolotga eltadi" tadbiri ham shular jumlasidan. Mazkur ma'naviy-ma'rifiy kechada o'quvchi va o'qituvchilar bilan bir qatorda maktab atrofida yashovchi aholi ham ishtirok etdi. Maktab direktori Oltinoy Xalilovich tadbirni oshib, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatining yoshlar ma'naviyatida tutgan o'rni xususida to'xtalib o'tdi.

Shu kuni tadbir ishtirokchilar uchun "Kitob sayli" tashkil etildi.

Gulchehra TURSUNMATOVA,  
shu maktab o'qituvchisi

## Geografiyaga qiziqish ortmoqda

Jizzax shahridagi 18-maktabda yangi o'quv yili katta zavq-shavq bilan boshlandi. O'quvchilar o'quv jarayonlarida faol ishtirok etish bilan birga geografiya va iqtisodiy bilim asoslarini fan oyligi doirasida ko'plab tadbir va ochiq darslarda ishtirok etishmoqda.

— "Jonli tabiat" mavzusida yuqori sinf o'quvchilari o'ttasida o'tkazilgan tanlovg'a o'quvchilar uy sharoitida saqlanayotgan jonivorlarni olib kelib, tengdoshlariga namoyish etishdi. 7-sinf o'quvchisi Ozod Muhsinov yurtimizda noyob hisoblangan to'tiquish va baliqlarni parvarish qiladi. Tadbirda yosh tabiatsevar to'tiquish va baliqlarning yashash tarzi, ularning nima bilan oziqlanishi haqida batafsil ma'lumot berdi. U parvarish qilayotgan jonivorlarni o'quvchilar katta qiziqish bilan tomosha qildilar. Bolalarda hayvonot dunyosini asrash, ularni ko'paytirish ishtiyoqi ortdi. Shunday ibratlari ishlarni amalga oshirayotgan Ozod Muhsinov tanlov g'olib bo'ldi.

Shuningdek, "O'zbekistonning go'zal tabiatiga xayoliy sayr" deb nomlangan noan'anaviy masgh'ulotda maktabning barcha o'quvchilari jamoa-jamoa bo'lib ijodiy ish yozdilar. Bu tanlovda 8-sinf o'quvchilar jamoa tayyorlagan buktul ustozlar tomonidan yuqori baholandi.

Fan oyligi doirasida ochiq darslar ham o'tkazilmoqda. Yosh

o'qituvchi Umida Bo'riyevning "Yer yuzasining kashf etilishi" mavzusidagi mashg'uloti yuqori baholandi.

A.SODIQOV

\*\*\*

Zarbdor tumanidagi 6-umumta'lum maktabida ham geografiya va iqtisodiy bilim asoslarini fan oyligi doirasida qulayliklarga ega maxsus xonalar hozirlangan.

Usmon XOLMEROV,  
Zarbdor tumanidagi  
6-maktab o'qituvchisi



## O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

2019-2020-o'quv yili uchun tayanch doktorantura va doktorantura bosqichlariga qabul e'lon qiladi.

Hujjatlar 15-sentabrdan 15-oktabrgacha online ([phd.mininnovation.uz](http://phd.mininnovation.uz)) tizimida registratsiyadan o'tish orqali) qabul qilinadi.

Doktoranturada o'qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdirm etadilar:

ariza;

qisqa biografik ma'lumotnomasi;

mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);

oliy ta'lif muassasasi magistraturasi diplomi, oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;

nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalar;

oliy ma'lumot, fan nomzodi yoxud folsa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi (DSc uchun);

tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruba va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik disser-tasiyasi rejasining mufassal loyihasi; ilmiy ishl asosnomasi.

Murojaat uchun tel: (91) 788-00-65.

Manzil: O'zbekiston Respublikasi,

Toshkent shahri, Markaz—5, 88-uy.

Telefon: (71) 207-09-66;

E-mail: journalism.univer@gmail.com

# Prezident maktablari — ta'lif sifatini oshiruvchi lokomotiv

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Maktabning umumiyyi sig'imi 168 o'quvchiga mo'ljalangan bo'lib, kelas-si yili faqat 5-sinfga 24 nafar bola qabul qilinadi, — deydi Toshkent shahridagi Prezident maktabi direktori To'raby Shermatov. — Maktabda o'quv jarayoni "STEAM" (Science — ta'lif, Technology — texnologiyalar, Engineering — texnik ijodkorlik, Art — san'at, Mathematic — matematika) dasturi asosida olib boriladi. Bu iqtidorli yoshlarning fikrash qobiliyati, iroda va ijodiy salohiyatini oshirishga imkon beradi. Ushbu fanlar yo'nalishidagi darslar ingliz tilida olib boriladi. Tarix, ona tili va adabiyot darslari tajribali pedagoglar tomonidan o'zbek tilida o'tiladi. Biologiya, kimyo, fizika va iqtisodiy bilim asoslari kabi fanlar ikki nafar o'qituvchi (mahalliy va chet eldan kelgan pedagog) yordamida tashkil etiladi, sinfdagi 12 nafar o'quvchining yetarli bilim olishi uchun hamkorlikda ishlanaadi.

E'tiborli, 17 ta o'quv va 3 ta amaliy-laboratoriya xonalarini mashg'ulot

metodologiyasiga xos dizayn asosida jihozlangan. O'quvchilar ikki guru-hga bo'lib o'tiladigan fan xonalarida stol-stullar jamoa bo'lib o'tirishga mos va kompyuterlar oltitadan joylashtirilgan. Iqtidorli bolalarning innovatsion loyiylar yaratishi uchun barcha elek-



tron jihozlar, kompyuterlar va 3D formatli printer mavjud. O'quv binosining markazidagi kutubxona ham zamonaviy qurilgan va jihozlangan bo'lib, uch qism — kutubxona, onlaysiz kutubxonasi (O'zbekiston Milliy kutubxonasi elektron bazasiga ulangan) va o'quv zalidan iborat. Bu yerda bolalar o'qigan asarlari yuzasidan debat usulida bilimini mustah-kamlab boradi.

Men ixtirolarga juda qiziqaman, — deydi maktabning 6-sinf o'quvchisi Boxirbek Qodirov. — Fizika, matematika va engilz tili fanlarini ishtiyoq bilan o'rganaman. Bu yerda darslardan tashqari shaxmat, suzish, san'at, robototexnika va musiqa to'garaklari bor. Dam olish

soatlarida teatr tomossa qilish va sport bilan shug'ullanish uchun imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. Kelajakda yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shadigan fizik mutaxassis bo'lishni maqsad qilganman.

Cambridge Assessment International Education vakkillari tomonidan mahalliy va xorijiy mutaxassislar uchun Cambridge o'quv dasturlari asosida maxsus treninglar o'tkazilib, ushbu dasturni amalga oshirishning ijobji tajribasini o'rgatish ko'zda tutilgan. Qolaversa, mutaxassislar jamoasi shakllantirilib, mamlakatimizda gi boshqa maktablar o'qituvchilarini uchun ham ilg'or pedagogik tajribani tatbiq

etish rejalashtirilgan. Prezident maktablari bu borada respublikamizda ta'lif sifatini oshiruvchi o'ziga xos lokomotivga aylanadi.

Shoira BOYMURODOVA

Vladimir GRANKIN o'lgan suratlari.



Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrdra 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Index: 149, 150. G-929. Tiraji 11626.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,  
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxa.

**TELEFONLAR:**  
qabulxona — (71) 233-50-55;  
kotiblyat — (71) 233-99-15;  
reklama va marketing bo'limi —  
(71) 233-42-92 (faks). (71) 236-54-17.



"Ma'rifat" dan  
materiarlari ko'chirib  
bosish tahririyat  
ruxsati bilan amalga  
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan  
qo'yozmalar taqiz  
qilinmaydi va mual-  
lifiga qaytarilmaydi.

**MANZILIMIZ:**  
100083, Toshkent shahri,  
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.  
**Navbatchi muharrir:** Abror Umarqulov.  
**Navbatchi:** Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

"Sharo" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.  
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'ZA yakuni — 21.50 Topshirildi — 22.50

12 456

# Ma'rifat

## TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston Oly va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari  
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.